O'ZBEKISTON TALABASI

2024.8. № 8(19)

NAF VA XAVF O'RTASIDA

JAMIYAT: TIKLANISH VA YEMIRILISH OMILLARI

ENG QADIM KO'KTURK KONSTITUTSIYASI

3030-3656

ANONS

BOBOM VA MUALLIM OBRAZI

U zamonlar muallimlarning obro‘si ancha baland bo‘lgan deyishadi. Harholda, bobom haqidagi voqealarni onamdan eshitganim uchun bunga ishonaman.

“BARIBIR O‘Z FIKRIDA QOLADI...”

Kamtar va itoatkor odamlarni ulug‘lashning foydasi yo‘q, chunki ular ulug‘langandan keyin kamtar va itoatkor bo‘lishni to‘xtatadilar.

TASAVVURDAGI HIKOYALAR

Vayronaga aylangan shahar tinchib qolgan. Maxluq bitta-yu bitta omon qolgan uy oldiga bordi. Biz ham uning ortidan ergashdik.

“SOG‘LOM RAQOBAT HAMMAMIZGA KERAK!”

Agar ishga olish jarayonida adolat bo‘lmasa, xodimlardan ishonch va fidoyilikni kutib o‘tirmang, hamma o‘z bilganicha ishlay boshlaydi, chunki avval boshidan talab noto‘g‘ri qo‘yilgan...

“TAKRORLAMASLIK XOHISHI USTUN KELDI...”

O‘shanda ro‘zg‘or yuki mening ham gardanimga tusha boshlagach gitara chalib ko‘proq pul topish mumkinligini anglaganman.

TA’SIR USLUBLARIMIZ TAASSUROTLIMI?

Faqat hisobotlar hajmini kattartirish emas, muayyan natijaga erishish uchun tadbirni dars jarayonining bir ko‘rinishi, ya’ni ijodiylik namoyon bo‘lish shakli deb qarash lozim.

TANAFFUSDAGI MUHABBAT

Birgina men sinfning burchagidagi partada birov e’tibor bermayotganidan xafa bo‘lmagan holda derazadan tashqariga qarab ko‘ngilni ozdiradigan o‘yin-kulgilar tugashini kutib o‘tirardim.

O‘ZBEKISTON TALABASI

Ma’naviy-ma’rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Bosh axborot hamkorimiz
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Jamoat kengashi
Isajon SULTON
Alisher SHODMONOV
Ravshan ERMATOV
Olim TOSHBOYEV
Dilorom KARIMOVA
Nodir JONUZOQ
Nazokat AZIM
Abduvali XOLIQOV
Kamoliddin O‘RINBOYEV
Gulmira MUSAJONOVA
Jenisbek PIYAZOV
Ayub SHAHOBIDDINOV
Iqbol QO‘SHSHAYEVA
Bahrom IRZAYEV
Shahobiddin SHARIPOV

Muassis
“INTEGRATION CENTR UMID” MCHJ

Direktor
Chorshanbi XOLMATOV

Bosh muharrir
Sirojiddin IBROHIM

Navbatchi muharrirlar
Otash YASHIN
Maqsad OBIDJON

Jurnal tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi

Sahifalovchi-dizayner
Rahmatjon YUNUSOV

Bir yilda 10 son o‘zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2500 nusxa.

Jurnalda e’lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyat manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza ko‘chasi 14-uy.
“Invest Book” bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko‘chasi 12-B uy.

31.10.2024-yilda chop etishga ruxsat berildi.

Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan +99891 077 75 75 raqami orqali ma’lumot olishingiz mumkin.

Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi:
@uzb_talabasi

MUNDARIJA

URFGA AYLANDIMI TILGA LOQAYDLIK? 02

JAMIYAT: TIKLANISH VA YEMIRILISH OMILLARI 05

TA'SIR USLUBLARIMIZ TAASSUROTLIMI? 08

BOBOM VA MUALLIM OBRAZI 12

SHERZOD NE'MATOV: "SOG'LOM RAQOBAT HAMMAMIZGA KERAK!" 16

"SHARQ NAPOLEONI" 22

DILNURA YO'LDOSHEVA: "TIRISHQOQLIK CHINIQTIRADI!" 30

TANQIDDAN SO'NG 34

GATES CAMBRIDGE SCHOLARSHIP 38

ABDULLA AVLONIY SCHOLARSHIP: EMPOWERING FUTURE LEADERS 40

TASAVVURDAGI HIKOYALAR 42

SAMUEL BATLER: "BARIBIR, O'Z FIKRIDA QOLADI..." 52

AFSONAVIY SARKARDALAR VA ULARNING TULPORLARI 56

AZZAMCHIK: "TAKRORLAMASLIK XOHISHI USTUN KELDI..." 60

TANAFFUSDAGI MUHABBAT 64

"YANA QAYTASANMI, O'G'LIM?" 66

BILGA XOQON QONUNI 68

NAF VA XAVF O'RTASIDA 70

URFGA AYLANDIMI TILGA LOQAYDLIK?

Inson yaralibdiki, o'zaro muloqotga ehtiyoj paydo bo'lgan. Muloqot vositalari esa har xil bo'lishi mumkin. Masalan, imo-ishora, yozuv, tasviriy shakl va yoki raqamlar yordamida insoniyat o'zaro muloqot qilgan. Muloqotning eng qulay shakli esa so'zlashuv – tildir. Til muloqot shakli sifatida insonga ato etilibdiki, ming yillardan buyon beminnat xizmat qiladi. Statistika hozir dunyoda so'zlashuv tillari soni 2500 dan 5000 tagacha ekanini qayd etgan. Va bu ko'rsatkich yildan yilga kamayib bormoqda. Zotan, tarixda xalqlarning qirilib ketishi va bir davlat boshqa davlatni bosib olib, u yerda o'z tilini zo'rlik bilan joriy qilishi natijasida ko'plab tillar o'lik tilga aylangan. Ammo hozirgi global zamonda bir tilning yo'qolib ketishi uchun biror millat qirilib ketishi yoki bir davlat ikkinchi bir davlatni bosib olishi shart bo'lmay qoldi. Ilm-fan va texnologiya ma'lum bir tilning dunyo bo'ylab tarqalishiga va boshqa tillarning surib chiqarilishiga zamin yaratdi.

Endi faraz qilaylik, bir til asta-sekinlik bilan o'lik tilga aylandi. Albatta, u o'zi bilan birga qanchadan qancha ilmiy va adabiy asarlar, bu tilda yaratilgan xalq qo'shiqlari va udumlarini o'ldiradi. Bu holatning qanchalik dahshatli ekanini faraz qiling, o'zbek tili yo'qolsa, siz boshqa bu tildagi qo'shiqlarni eshitolmaysiz, bu tildagi kinolarni ko'rolmaysiz. Chunki bu til sizning ongingizdan ko'tarilgan, butunlay boshqa bir til ongingizni egallagan. Eng asosiy fojia – biz bu tildagi nodir asarlardan mahrum bo'lamiz. Qodiriyni, Cho'lponni, Abdulla Oripovni, Erkin Vohidovni o'z tilimizda o'qiy olmay qolamiz. Zotan, biz Alisher Navoiy va Zahiriddin Boburni o'qib tushunmas darajaga kelib bo'ldik. Tilimizga boshqa tillardan so'zlar kirib kelishi natijasida bu davr asarlarini tushunmas darajaga yetdik. Zotan, biz fojianing ustida turibmiz. Shu tartibda yana 20-30 yil davom etsak, hozirgi zamon durdonalaridan ham ajralamiz.

Asarlarni o‘qiy olmaymiz, qo‘shiqlarni tinglolmaymiz, kinolarda ongimizdan ko‘tarilgan bironta so‘zga duch kelamiz-da, bu qanday ma’noda ekan, deb boshimiz qotadi. Bu orqali o‘z tariximizni, madaniyatimizni, hayot tarzimizni, urf-odatlarimizni, milliy bayramlarimizni unutamiz. Qaysi tilni ko‘proq o‘zlashtirgan bo‘lsak, o‘sha xalq madaniyatini o‘zimiz sezmagan holda qabul qilamiz. Bu esa o‘zingiz anglaganingizdek, manqurt bo‘lish bilan teng.

Avvalo, til deganda biz nimani tushunamiz? Biror millatning umumiy tilinimi yoki inson tug‘ilgan hudud lahjasinimi? Albatta, ikkisi ham o‘z o‘rniga ega ona tilimizdir. Oila vatan ichida kichik vatan deganlaridek, biror bir hudud shevasi ham millat tilining kichik bir shoxobchasi. Avvalo, o‘sha shevalar orqali xalq adabiy tili shakllanadi. Demak, biz avvalo shevamizni unutmasligimiz, asrashimiz kerak.

Shu o‘rinda kichik bir lirik chekinish qilsak... Yoshlar, xususan talabalar orasida bir bahs yuradi. Bir tomon inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan hududining shevasini umuman tark etmasligi kerak, deb hisoblasa, ikkinchi bir tomon inson bir joydan boshqa joyga ko‘chganida shevasini o‘sha joyning shevasiga moslashtirishi kerak, deb hisoblaydi. Albatta, har bir fikr subyektiv va nisbiy. Ammo bizga ko‘ra, inson bir joydan boshqa bir joyga ko‘chdimi, u o‘z shevasida emas, albatta millat adabiy tilida so‘zlashishi kerak, hisoblaymiz. Axir, adabiy til aynan o‘sha yerda bizga xizmat qilmaydimi?

Masalan, poytaxtimiz Toshkent shahriga O‘zbekistonning 12 viloyatidan, asosan, talabalar oliy ta’lim olish uchun kelishadi. Endi faraz qilaylik, barcha o‘z shevasida gapiraversa, predmetlar o‘z shevasidagi nomi bilan atalaversa, anglashilmovchiliklar kelib chiqmaydimi? Butun dunyo uchun ingliz tili so‘zlashuv tili deb qabul qilinganidek, ma’lum bir xalq uchun ham, umuman, so‘zlashuv tili adabiy tildir. Talabalar orasida turli hududlar shevasi bir joyda to‘qnashishi bilan bog‘liq turli hangomalar yuradi. Talaba bo‘lganlar buni boshdan kechirgan.

Endi asosiy mavzuga qaytsak... Til taraqqiy etishi uchun, asosiysi, yemirilmasligi uchun avvalo davlat amaldorlari, davlat xizmatchilari tilni mukammal bilishi va uni hurmat qilishi kerak. Men talabalik paytlarim ba’zan tirikchilik uchun qurilishda ishlab turardim. Shunday qilib bir safar davlat xizmatchisinikida ishladim. Otaxon hokim muovini yordamchisi lavozimidan pensiyaga chiqqan. Millati koreys ekan. Rus tilida to‘xtovsiz gapirgan holda o‘zbek tilida zo‘rg‘a gapiradi. Endi faraz qiling, qo‘yning “til”ini, uning odatlarini tushunmaydigan inson qanday qilib cho‘ponlik qilishi mumkin? Xuddi shuningdek, biror bir xalqning tilini tushunmaydigan davlat xodimi uning urf-odatlari va yashash tarzini ham tushunmaydi. Otaxon millati koreys bo‘lib, o‘zbek tilida zo‘rg‘a so‘zlashgan holda umri davomida hukumat idoralarida ishlab kelgan.

Zamondosh mulohazasi

Bundan tashqari, jamiyatda ko'pchilik o'zbek tilining o'rniga rus tilida so'zlashishni o'ziga faxr deb biladi. Bu juda og'riqli masala bo'lib, aksar ziyolilar mazkur murakkab muammoni ko'tarib chiqishgan. Murakkab muammo deyishimizga sabab shuki, qarshimizda o'zbek tili bo'la turib, rus tilida so'zlashishimiz biz uchun isnod bo'lgani holda, rus tilini ham butunlay chetga surib qo'ya olmaymiz. Chunki bir asrdan ko'proq mustamlaka davrida rus tili hukumat idoralari va madaniyatimizga ham bir qadar kirib borgan. Biz har bir tilni o'z o'rnida ishlata olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zi o'zbek bo'la turib rus tilini o'zbek tilidan ustun qo'yadigan va rus tilida so'zlashadiganlar, hatto o'zbek bo'la turib o'zbek tilini bilmaydiganlar ham jamiyatda ko'p uchraydi. Gapimni yana bir hayotiy misol bilan isbotlashga harakat qilman. Yetkazib berish xizmatida ishlagan paytlarim Toshkentning deyarli har bir ko'chasiga kirishga va ko'pchilik bilan muomala qilishga to'g'ri kelgan. O'shanda amin bo'lganmanki, shaharning eng markaziy hududlarida va rasmiy idoralarida rus tilida gaplashishadi. Millati rus bo'lsa-ku ko'z yumsa bo'ladi, ammo bu odamlar o'zbek bo'la turib o'z ona yurtida rus tilida gaplashishi til uchun, millat uchun o'ta behurmatlikdir. Holbuki, o'zbeklar Rossiyada ruslar bilan o'zbekcha gaplashishmaydi. Albatta, bu holatni ham turli sabablar bilan izohlash mumkin. Bir asrdan oshiq vaqt mobaynidagi mastamlakachilik davrida rus millati bizga o'tkazgan ta'sirdan butunlay chiqib ketish tez va oson bo'lmayapti.

Bir tanishimning ta'kidlashicha, Toshkentda unga bir rus kishi o'z tilida murojaat qilgan. Tanishim esa rus tilini bilgan holda o'zini tushunmaganga solib unga jim qarab turavergan. Xullas, rus qattiqroq gapirgan, tanishim esa baribir qarab turavergan. Natijada o'ris duppa-durust o'zbekcha gapirgan. Ko'ryapsizmi, yurtimizda yashayotgan ruslarning ham ko'pchiligi o'zbek tilini biladi. Ular shunchaki o'z tilini xor qilib qo'ymaydi. Demak, biz ham o'z tilimizni asrasak bo'lar ekan. Endi o'zingizga savol bering, biz nima qilyapmiz tilimiz uchun? O'z yurtimizda o'zga tilda gapiryapmizmi? Farzandimizni rus makablariga beryapmizmi? Yoki barchasiga bee'tibor qarab turibmizmi?

Diyorbek MAHMUDOV

JAMIYAT: TIKLANISH VA YEMIRILISH OMILLARI

Yer yuzida turli xil jamiyatlar mavjud va bu jamiyatlar bir-biri bilan tubdan farq qiladi. Geografik joylashuvi, sivilizatsiyaviy omillaridan kelib chiqqan holda alohida guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Jamiyat so'zi aslida lotincha "socium" – umumiy degan ma'noni anglatadi.

Olimlarning fikricha, jamiyat absolyut qiymatga ega emas, ya'ni doim o'zgarib boradi va yangi xususiyat kasb etadi. Endi savol tug'iladi, jamiyatning asosini nima tashkil qiladi? Olimlar bu savolga quyidagicha javob berishadi: Jamiyatning asosini inson faoliyati va insonlarning bir-biriga qilgan munosabati tashkil qiladi. Bunga oilaviy, huquqiy munosabatlar, ishlab chiqarish, din kabilar misol bo'la oladi. Jamiyatni ishlab chiqarishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta. Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish vositalari jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi, fundamental faktori sanaladi. Inson kiyim-kechaksiz, uy-joysiz, oziq-ovqatsiz, til, odob-axloqsiz mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun biz bu omillarni sanab o'tishimiz maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatlarning evolyutsion taraqqiyoti va yillar davomida davom etib kelayotgan faoliyatini biz tarixga oid kitoblardan va bir qancha olimlarning nazariyalaridan bilib olishimiz mumkin. Misol uchun 250 000 yil avval boshlangan ovchilik va terimchilik jamiyatlari biz bilgan eng qadimgi jamiyatlardir. Ovchilik va terimchilik nomidan ko'rinib turibdiki, bu jamiyatlardagi odamlar oziq-ovqat uchun ov qilishgan, o'sim-

liklar va boshqa mevalarni yig'ishgan. Ular omon qolishlari uchun guruh bo'lib ov qilishlari va topilgan yegulikni o'zaro baham ko'rishlari kerak bo'lgan. Ovchi va terimchi xalqlar oziq-ovqat izlash uchun ko'pincha bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishgan. Ular ko'chmanchi bo'lganligi sababli, ularning jamiyatlari juda kichik bo'lib, ko'pincha bir necha o'nlab odamlardan iborat bo'lgan. Demak, bundan tushunish mumkinki, jamiyatlarning hozirgi taraqqiyoti biz biladigan sodda kriteriyalardan boshlangan.

Antropologlar bu jamiyatlar olib borgan hayot tarzining oddiy xulosasidan tashqari, ulardagi ijtimoiy munosabatlarning tabiatini ham aniqladilar. Ularning eng muhim topilmalaridan biri shundaki, ovchilik va terimchilik jamiyatlari teng huquqli bo'lgan. Garchi erkaklar ovchilarning ko'p qismini tashkil qilishsa ham bu jamiyatlarda ayollar va erkaklar taxminan tengdir. Ovchilik va terimchilik jamiyatlarining mol-mulki kam bo'lganligi sababli, ularning a'zolari ham boylik va kuch jihatidan teng bo'lgan, chunki deyarli hech qanday boylik mavjud bo'lmagan.

Ijtimoiy o'zgarish – bu ko'pchiligimiz odatiy deb qabul qiladigan yoki ko'zimiz ilg'amaydigan tushunchadir. Hech bir jamiyat avvalgidek qolmagan. O'zgarish har doim sodir bo'lgan. Biz o'zgarishlarni muqarrar deb qabul qilamiz va ijtimoiy o'zgarishlar doim yangilanib boradi. Faqatgina jamiyatning tub tamoyillari o'zgarmaydi va o'zgarishi mumkin emas.

Jamiyat absolyut qiymatga ega emas, ya'ni doim o'zgarib boradi.

Quyidagi sabablar hozirgi globallashgan zamonda ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'la oladi:

1. **Madaniyat:** turli xalqlarning urf-odatlari, qadriyatlari va an'analari odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlariga ta'sir qiladi.

2. **Ijtimoiy tuzilma:** oilaviy, ish joyidagi va jamiyatdagi o'rinlar munosabatlarni shakllantiradi.

3. **Ta'lim va bilim darajasi:** odamlarning bilim va savodxonlik darajasi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi.

4. **Texnologiya:** ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy texnologiyalar odamlar o'rtasidagi aloqa usullarini o'zgartirib, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlariga ta'sir qiladi.

5. **Iqtisodiy holat:** boylik yoki moliyaviy resurslarning notekis taqsimlanishi ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin.

6. **Din va e'tiqod:** diniy qarashlar va e'tiqodlar odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiladi.

Sotsiologlar ijtimoiy o'zgarishlarni madaniy hamda ijtimoiy institutlarni o'zgartiradigan odamlarning o'zaro ta'siri va munosabatlaridagi o'zgarishlar sifatida belgilaydilar. Bu o'zgarishlar uzoq vaqt mobaynida sodir bo'ladi va ko'pincha jamiyat uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. Bunday o'zgarishlarga misol qilib ishchilar huquqlari, fuqarolik huquqlari, ayollar huquqlari va ijtimoiy harakatlar natijasida yuzaga kelgan jarayonlarni aytish mumkin. Ushbu ijtimoiy o'zgarish harakatlari natijasida munosabatlar o'zgaradi, institutlar va madaniy me'yorlar o'zgaradi.

G'arb olimlari jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy o'zgarishlarni ideal baholashgan. Nemis olimi Maks Veber asosan, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiladigan omillar sirasiga qadriyatlar, an'analar va inson evolyutsiyasini kiritdi. Bu fikr ham mantiqan to'g'ri. Lekin ancha avval bu fikrga qarama-qarshi pozitsiyada nemis sotsiologi Karl Marks jamiyat o'zgarishi sababini iqtisod bilan bog'laydi. Endi savol tug'iladi, qaysi biri fundamental faktorga ega, iqtisod yoki qadriyat?

Jamiyatning tub tamoyillari o'zgarmaydi va o'zgarishi mumkin emas.

Jamiyat o'zgarishiga har ikkalasi ham katta ta'sir ko'rsatadi, lekin ularning qaysi biri kuchliroq ekanligi turli omillarga bog'liq:

1

Iqtisodiy o'zgarishlar: iqtisodiy sharoitlar, daromadlar darajasi, bandlik, infratuzilma va texnologik rivojlanish kabi omillar jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iqtisodiy o'sish bilan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari yaxshilanadi, bu esa odamlarning turmush darajasini ko'tarib, jamiyatning ko'proq modernizatsiyaga moyillashishiga olib keladi.

2

Qadriyatlar: jamiyatdagi diniy, madaniy va axloqiy qadriyatlar esa odamlarga boshqarish tizimlarini, ijtimoiy munosabatlarni va turli ijtimoiy qoidalarni belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qadriyatlar, ayniqsa, uzoq muddatli o'zgarishlarda muhimdir, chunki ular jamiyatni boshqarish usullariga, ijtimoiy birlik va barqarorlikka ta'sir qiladi. Masalan, qadriyatlar o'zgarishi orqali jamiyatning ayollarga yoki ozchilik guruhlariga nisbatan munosabati o'zgarishi mumkin.

Bundan xulosa shuki, yuqoridagi ikki omil ijtimoiy, tarixiy, siyosiy vaziyatlarga bog'liq.

Dilshod NASULLAYEV
O'zDJTU talabasi

TA'SIR USLUBLARIMIZ

Tadbirlar, tadbirlar... Tadbirlar – mukammal, benuqson turmush haqidagi tasavvurlar ifodasidir. Tadbirlar – jamiyat a'zolari intilgan, ammo nedir sabab bilan parda ortida qolib ketgan ilg'or g'oyalar taqdimoti. Muayyan tadbirda targ'ib etilgan g'oya barchaga ma'qul deb topiladi, biroq yakunida olijanob mo'ljallar havoga uchib, tantanavor yangragan so'zlar va xitoblarning o'rni huvillab qoladi, xolos.

Kundalik hayotda tadbirlar juda ko'p: muslimlarga ma'naviyat tarqatayotgan voiz, ezgulikni tarannum etuvchi she'r o'qiyotgan shoir, bunyodkor g'oyalar singdirilgan kino yaratgan rejissor, noyob hayot haqiqatini o'zida mujassam etgan asar yozgan adib – barcha-barchasi "tadbir" deyiladigan jozibali sahnaning ishtirokchilaridir. Hamma gap targ'ib etilgan g'oyaning singdirilganligida.

Tadbirlarda birdaniga katta natija ko'zda tutilmaydi: misol uchun kitobxonlik kechalaridan so'ng ishtirokchilar yoppasiga kitobga sho'ng'ib ketmasligi yoki amru ma'ruf tinglagan avom masjiddan chiqiboq taqvodor inson bo'lib olmasligi barchaga ayon. Ammo... rejissor Jeyms Kameronning bir mashhur e'tirofi inobatga olinishi lozim. "Titanik" filmi dunyoni o'n marta "aylanib" chiqqanidan so'ng tomoshabinlar soni milliardga yetganlik fakti qayd etildi. Shunda Jeyms Kameron g'oyatda kamtarlik bilan "agar o'sha milliard nafar tomoshabinning loaqal bir nafari film zamiridagi g'oyaga qat'iy amal qilsa, demak mehnatimiz zoye ketmabdi", degan edi. Bizningcha, mashhur rejissor sal oshirib yuborgan: shunchaki, har qanday raqamning ham natija sifatida qayd etilishi mumkinligiga ishora qilgan bo'lishi mumkin u.

TAASSUROTLIMI?

Aslida, ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan tadbir nihoyasida qatnashuvchilarning bir foizi mutaassir kayfiyat bilan chiqsa, natija qoniqarli sanaladi. Kayfiyatning "yuqumlilik" xususiyatini ham hisobga olsak, hech qanday tadbir benaf ketmasligiga umid qilish mumkin.

Til targ'ibotiga bag'ishlangan tadbirlar samaraliroq bo'lishi kuzatilgan. Negaki, til o'rganish – zarur fenomen, bu maqsadga oson erishish usuli targ'ibotiga bag'ishlangan har qanday vosita o'rganuvchi uchun qiziqarli. Ingliz tilini o'zlashtirish ijtimoiy zaruratga aylangan hozirgi davrda bu jarayon bilan bog'liq har qanday voqelik to'g'ri ma'noda qarsaklar bilan kutib olinadi. Gap faqat tadbirlarning jonli, hayotiy va ortiqcha dabdabasiz tashkil etilishida. Shuning uchun biz – ingliz tili va adabiyoti o'qituvchilari tadbirlardan tilni mukammalroq o'rgatish vositasi sifatida tez-tez foydalanib turamiz. To'g'ri, tadbir o'tkazish metodikasi tavsiya etiladi, turli ssenariylar taklif qilinadi. Biroq bunday hujjatlarga to'liq "suyanib qolish" hafsalasizlikka o'xshash kayfiyatni yuzaga keltiradi. Biz foydalanish uchun tavsiya etilgan metodika va turli ssenariylarni o'z talabalarimizning qiziqishlari, tilni o'rganganlik darajasi, qobiliyati, kelajakdagi rejalaridan kelib chiqqan holda ijodiy qayta ishlaymiz, to'ldiramiz.

O'tgan o'quv yilida o'tkazilgan intellektual-adabiy tadbirlardan biri shaxsan menda eslab yurarli taassurot qoldirgan edi. Universitetimizning xorijiy filologiya fakulteti tarjima yo'nalishi 3-kurs talabalari o'rtasida jamoaviy bellashuv shaklida o'tkazilgan bu tadbirning tavsiya etilgan shartlarini baholi imkon ijodiylashtirdik. Bellashuv nizomida ko'rsatilgan beshta shartda ham talabaning ingliz tilini bilish darajasi, poetik hissiyoti, tarjima mahorati, aktyorlik qobiliyatini baholash ko'zda tutilgan edi. Biz esa talabaning o'z shaxsiy fazilatlarini ham namoyon eta olishi uchun imkon yaratdik va shartlarning talablarini yangiladik.

Mohiyatga nazar

Tadbir yakuniga yetishi bilan tomoshabin sifatida qatnashgan 1-kurs talabasi yonimga kelib, "Ustoz, men mohir tarjimon bo'lmoqchiman. Buning uchun nima qilishim kerak?" deya so'rab qoldi. Shu savolning o'ziyoq ushbu intellektual-adabiy bellashuvga sarflagan vaqtimiz zoye ketmaganligini, tadbir o'zini to'la oqlaganligini ko'rsatar edi. Shu topda o'yladimki, xuddi shunday istak o'nlab talabalarning qalbida paydo bo'lgandir, ammo birgina shu qiz jur'at topib menga murojaat qilgan. Bu natija meni to'liq qanoatlantirar edi. Tabiiyki, men bu talaba uchun alohida vaqt ajratib, tegishli tavsiyalar va maslahatlarimni berdim.

Xorijiy filologiya fakultetining 3-kurs talabalari bilan o'tkazilgan yana bir tadbir nazarimda natijador ko'ringan edi. Buyuk ingliz adibi Uilyam Shekspir ijodiga bag'ishlangan "Shakespeare's playwriting" deb nomlangan davra suhbatida tuygan iftixorimni mudom eslab yuraman. Tadbir buyuk Shekspir ijodiga bag'ishlangan faktlar, ma'lumotlar, shaxsiga oid kechmishlarning ma'ruza tarzida bayon etilishini nazarda tutardi. Biz esa davra suhbatining muqaddimasidayoq ssenariydan butkul "chiqib ketdik". Shekspirni uncha-muncha o'qigan talabalar uning asarlaridagi syujetlar muhokamasiga kirishib ketdi. Hamlet, Otello, Dezdemona, Ofeliya, Yago kabi personajlar shaxsan tanish kimsalarday past-baland tavsiflarga "ko'mib" yuborildi. Tadbir boshlovchisi "reglamentga rioya qilish zarur"ligini chandon eslatgani bilan, bahs ishqibozlari barcha ishtirokchilarni rom qilib oldi. Men uchun eng yoqimlisi yakunida sodir bo'ldi: birdaniga uch-to'rt nafar talaba yugurgilab yonimga keldi va "Shekspirning eng avval qaysi asarini o'qish oson" ekanligini so'radi. Men buni tadbir hisobotiga kirita olmasdim, albatta, biroq chinakam amaliy natija sifatida yuragimda saqlab qo'ydim.

Termiz davlat universiteti axborot-resurs markazi mutaxassislari bilan ko'p hamkorlik qilamiz. Ingliz va jahon adabiyoti durdonalariga bag'ishlangan tadbirlarni to'g'ridan-to'g'ri ARM zallarida o'tkazamiz. Bir safar kitobxonlikni targ'ib qilish masalasida ARM mutaxassislari qo'llaydigan usul ustida fikr almashdik. Ular matematikadagi arifmetik progressiyani kitobxonlar sonini oshirish sohasiga ajoyib tarzda joriy etishar ekan. Kartotekalarni tahlil qilish asnosida badiiy asarlarni ko'proq o'qiydigan talabalarni zimdan "ko'z ostiga olib qo'yishar" va unga o'ziga bir sherik (kitobxon) topishni yengilgina sha'ma qilishar ekan. Agar bu sha'ma topshiriq tarzida aytilsa, talaba bu ishga "rasmiy" tarzda kirishadi va tabiiyki, harakatlari natija bermaydi. Talabaga taxminan shunday deyiladi: "Badiiy asarni o'qish qanchalik zavqli bo'lsa, uni biror kitobxon bilan muhokama qilish undan-da halovatliroq. Shuning uchun shu asarni yana bir o'rtog'ingizga tavsiya qiling". Shu alfozda kitobxonlar soni arifmetik progressiya asosida ortib borarkan.

Biz xorijiy filologiya fakultetida an'anaviy "Jahon adabiyoti durdonalari" deb nomlangan tadbirlarning tavsiyaviy mazmunini "o'zgartirib" yubordik. Tasavvur qiling: talabalardan biri minbarga chiqib, jahonda tengsiz deb e'tirof etiladigan o'nta kitobni sanab, ularga qisqacha sharh berib chiqsa-da, qolganlar esnoq aralash eshitib o'tirsa? Shunday shamoyilli tadbirdan so'ng biror talaba "bugundan boshlab badiiy kitob o'qiyman", degan azm-u shijoat bilan uyga qaytarmikan? Biroq "Mark Tvenning "Ovsar Vilson"i aslzoda o'rnini egallagan qulvachchani fosh etib to'g'ri qildimi?" yoki Artur Konan Doylning Sherlok Xolmsi ashaddiy odamxo'rni o'ldirish bilan "hukumatga bir quloch arqonning pulini tejab bergan" olijanob qotilni jazodan asrab qolib insoniylik namoyon etganmi?" mazmunidagi qizg'in bahslar so'ngida o'sha telbasifat daho hamda afandisifat izquvar bilan tanishish istagini zohir qiluvchi talabalar paydo bo'ladi.

Men buni amaliy vaziyatlarda sinab ko'rganman. Mashhur Jek Londonning "Dengiz bo'risi" asarida kema halokatiga uchragan bosh qahramon (ya'ni asardagi "Men") machta ustunining parchasiga tirmashib olgancha, tasodifiy xaloskorni kutardi. Dengiz po'rtanasi quturgan asnoda, tun qorong'isida olisdan bir kemaning mash'ali yaqinlashardi. Qiziq holat: jonholatda, ilinj bilan najot kutib, yutoqib talpinayotgan qahramon (ya'ni "Men") deyarli baqamti kelib qolgan kemaning palubasidagi odamlarni tasvirlashga tushib ketsa-ya? Ana shu manzarani bevosita dars vaqtida talabalar bilan muhokama qilganmiz. Chindan ham dahshatli stixiya bilan kurashayotgan odamning palubadagi matroslarning qiyofasiga sinchkovlarcha e'tibor berish xohishi bormi? Yoki daho Jek London ehtiyojmand odamning qutqaruv obyektiga shunchalar qiziqishini tabiiy holat deb hisoblaydimi? Talabalar kelgan yakuniy xulosaning mavzumizga bevosita daxli yo'q. Biroq o'sha munozaralarga boy darsdan so'ng "Dengiz bo'risi"ni topib o'qishga ahd qilgan talabalar soni chandon oshdi. Tasavvur qiling: xuddi shunday qizg'in bahs tadbir ko'rinishida tashkil etilganda, natija salmoqliroq bo'lmasmidi?

Xulosa shuki, tadbirlar har doim maqsadli tashkil etiladi, binobarin, OTMdagi ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas bir qismidir. O'qituvchi darsni qanchalik jonli, hayotiy, amaliy vaziyatlarga bog'lab o'tsa, shunchalik samarali bo'ladi. Tadbirlar haqida ham xuddi shu gap: faqat hisobotlar hajmini kattartirish emas, muayyan natijaga erishish uchun tadbirni dars jarayonining bir ko'rinishi, ya'ni ijodiylik namoyon bo'lish shakli deb qarash lozim. Zero, astoydil harakat natijasi bo'lgan har qanday tadbir yakunida taassurotlar orttirgan talaba har doim topiladi.

Sayyora PO'LATOVA
TerDU katta o'qituvchisi

BOBOM VA

...Uzamonlar muallimlarning obro'si ancha baland bo'lgan deyishadi. Harholda, bobom haqidagi voqealarni onamdan eshitganim uchun bunga ishonaman...

Bobomdan ayrilganimda endigina 9 yosh edim. Eslaganlarim – meni eshakka mingashtirib, uyimizdan yuqori qishloqdagi hovlisiga olib borar, kuchim yetgan mayda-chuyda ishlarga jalb qilardi – beli qotib, dangasa bo'lmasin, uy yumushlariga qayishib, ota-onasiga dastyor bo'lsin degan bo'lsa kerak. Bobom qazo qilgandan keyin ham ancha vaqtgacha buvimga ko'maklashib turganman. Gap mening ishchanligim haqida emas, bobom tilla odam bo'lgan – oddiy ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, qishlog'ining shoiri, mehnatkash va halol inson.

Onadan juda erta yetim qolgan bobom otasi-yu o'gay onasining sitamlaridan bardoshli bo'lib o'sgan. Volidasining ta'ziyasiga kelgan ayollar marsiya aytganda diqqat bilan eshitar, ketishganda esa ulardan quloqqa ilganlarini daraxtga chiqib, boshiga chelak kiyib takrorlagan. O'sha lahzalarda marsiyadagi ohangni his qilgan go'dakning she'rga ishqi tushgan bo'lsa ajab emas. O'rta maktabni hammadan qoyil qilib tamomlagan yigitga ustozlari kattadan-katta umid bog'lashadi, ammo otaning fikri umuman boshqa: qishloqdagi ishlarni kim qiladi, o'qish zarur kelgani yo'q, olim bo'lish qochib ketmaydi... O'qishni Samarqandda davom ettirmoqchi bo'lgan farzandini ne-ne haqorat-u dashnomlar bilan rayidan qaytarishga urinmasin, bobom tog'asining eski kostyum-shimini o'ziga moslab tikib "qaydasan, sayqali zamin!" deya qochib ketadi. Bu uning ilm izlash yo'lida qilgan eng katta ishi edi! Past bo'yli, jaydari, tilidan chiqqan har so'zi kishini hayron qoldiradigan bobom SamDU muallimlarining-da e'tiborini qozonadi. Garchi tojik tili va adabiyoti yo'nalishini tamomlagan bo'lsa-da, gazetalarda o'zbekcha she'rlari ham bosilib turgan. Tahsilni keyingi bosqichda davom ettirish, o'sha yerda dars berishni taklif qilgan professorlarga ming xijolat bilan rad javobini bergan bobomning ko'z oldidan qishlog'idagi ilmga chanqoq yoshlar o'tgan bo'lsa ajab emas. Uyga – Boysunga qaytganida 33-sonli maktabga u tengi o'qishni tamomlab kelganlar bilan birga ishga olishadi. Bu, bizdan kattalar yaxshi eslaydi, muallim desa, havas bilan qaraydigan, ro'baro' kelsa, yo'lning narigi yoqasidan o'tib ketadigan, go'yo bu dunyoda o'qituvchi zotidan qarzdordek qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beradigan insonlar yashagan davr edi. Bobomning salohiyati, o'qitish uslubi tez orada qishloqdagilarning gurunglariga mavzu olib kiradi:

– Juda qattiqqo'l ekan, o'qimaydiganlar bilan murosa qilib o'tirmas ekan...

– Kecha o'g'limning qulog'idan cho'zib, baqirib beribdi. Jahlim chiqdi, bolamdan so'rasam, ayb o'zida ekan. Shuncha vaqt yo'lga sololmadim bu dordan qochgan padarla'natini. Bugun qarang, qo'lidan kitob tushmayapti...

– Bu domlamiz she'r ham yozarmish, mana shunisi bizga ma'qul, savodi yaxshi ekan-da...

– Kimni aytyapsizlar?

– Bir yangi o'qituvchi, o'zimizdan...

Buyog'iga endi yosh muallimning tumandagi maktablar o'rtasida talash bo'lishini kim kutibdi deysiz! Adabiyot nuktadoni, forsiyda ham, arabiyda ham savodi chiqqan bobomni yo'qlab keluvchilar, ilm yo'lida oshno tutinmoq istagidagilar soni ko'payadi. Mehmonlari so'ragan kitoblarni biroz qizg'anchiqlik

Bobomdagi serqirralik ko'p odamlarni havaslantirgan

MUALLIM OBRAZI

bilan berar, o‘qib bo‘lib qaytarishlarini bot-bot takrorlar edi. Qani o‘sha kitoblar deng, butun boshli kutubxonadan asar ham qolmagan. Ko‘rsatib maqtanay desam, gazetlarda chiqqan she’rlarini ham bag‘ridagi gazni havoga sovuradigan Boysunjonda pechkaga solib yoqishganmi, hech yerdan topilmaydi.

Bobom bilimli bo‘lish barobarida, juda mehnatsevar edi, maktabdagi darslardan bo‘shagan kezlarda chorva boqqan, go‘zal bog‘lar yaratgan. Bozor qilishda bobomning oldiga tushadigani yo‘q edi. Yerto‘lada ro‘zg‘or uchun kerakli barcha mahsulotlar g‘amlangan bo‘lib, har mehmonga borganda katta bochkada bostirib qo‘yilgan qovurma go‘shtlardan yashirincha paqqos tushirardim. Molbozordan mol xarid qilganida “bor baraka, rozi bo‘ling!” deya sotuvchining qo‘lini siltayversa, qo‘llari ishlamay ham qolarmish, bobomning ortidan yovqarash qilsa, atrofda kulgi ko‘tarilarmish. Bobomdagi serqirralik ko‘p odamlarni havaslantirgan, bunga bugungi o‘z obro‘-e’tiboriga ega shogirdlarini ko‘rib amin bo‘laman. Bobomni qishloqdagi to‘ylarda davrani olib boruvchi rais bo‘lganini aytishadi, jarangdor va do‘lvor ovozi qishloq to‘ylarini fayzli, maz-

munli qilgan. Shunday davralarda Shayx Sa'diyning "Yodingdami, sen tug'ilgan on, hamma xandon edi, sen esa giryon. Shunday yashaginki, ketar chog'ingda, hamma giryon bo'lsin, sen esa xandon!" misralarini aytib, ko'plarga insonning hayot yo'lini eslatib turgan. Men esa bu she'rning mazmunini hamisha bobomga bog'lab kelaman.

Bobom muallimlikni ham, shoirlikni ham, mehnatni ham o'z o'rniga qo'ya olgan shaxs edi. Undagi shijoat, g'ayrat uncha-munchasida yo'q edi. Shuning uchun qayerga bormasin, hurmat topardi. Hozir ham qishloqqa borganimda meni tanimagan katta avlodga bobom – Ravshan Esanovni eslataman va zumda ularga avvaldan tanish bir qadrdon sifatida suhbatlashaman.

Shuncha maqtadim, ammo bobomning o'zi uchun to'g'ri, boshqalar uchun noto'g'ri qarorlari ham bo'lgan. Masalan, to'rt qizdan hech birini maktabdan so'ng o'qishga jo'natmagan, onam haligacha shundan yozg'iradilar. Uyda o'zlari yetarlicha ta'lim berib, qiz bolaning o'rni uyda, farzandni parvarishlab, voyaga yetkazsa bas, deya ro'zg'or ishlari, hunarmandchilik bilan band qilgan. Garchi shuncha qarshilik bo'lsa-da, tog'alarimga qaraganda onam va xolalarimning zukkoligi, ilmga chanqoqligi bobomni ichdan qiynaganligi aniq. To'g'ri, qishloq qizining shaharga borib o'qishi ota uchun katta tavakkal, balki shu uchun ham avvalgilarni tushunsa bo'lar.

Bu so'zlarim bir qishloq muallimining shaxsi, hayotiy tutumlari, kechinmalari haqida. Nazarimda, muallim

ma'lum qolipga moslangan, chizib berilgan chiziqlardan chiqmaydigan kishi bo'lishga majbur emas. Balki o'z qirralari, iste'dodi, shaxsiy e'timodi bilan boshqalarni ilhomlantirishi, ruhlantirishi kerak. Har qanday og'ir sharoitda yashasa-da, o'zi tanlagan yo'l – ilm izmida sobit turishi muhim. Ammo bugungi zamonda ayrim narsalar o'zgarib ketgandek. Paxta terimidan, majburiy mehnatdan ozod qilingan muallimlarni nimalar qiynayapti? (to'g'ri, ba'zan hamon jamoat ishlariga jalb etilayotganini ko'ryapmiz) Konspektmi, ish rejami, davomat yoki "tekshirish"? Balki, ilmiy malakaning yetishmovchiligidir? Ehtimol, "yuqori"dan, u yoq-bu yoqdan keladigan egri topshiriqlardan charchagan muallimlarning xorijda mardikorlik qilayotganini ortiq ayblab bo'lmas. Aytingchi, o'quvchilari birgalashib kaltaklagan muallim shu kasbdan ortiq lazzat ololadimi? Bugun jamiyatimizda muallimlarga bo'lgan hurmat qay darajadaki, qancha yoshlar ularga havas qilyapti, ulardek bo'lishga intilyapti? Nahotki o'qituvchi nomini bugungi zamonaviy dunyoda biznesmen, diplomat, siyosatchi kabi fenomenal darajaga olib chiqish mumkin emas!? Kim to'sqinlik qilyapti bunga? Bundan kimlar manfaatdorki, kelajak avlodni har tomonlama komillikka yetaklovchi insonlarning mavqeyi quyi darajaga tushsa? Muallimning maoshi ming, boringki, ikki ming dollar bo'lsin, ammo uning qadri chaqaligicha qolaversa, bundan nima naf?

Ammo ba'zi o'quv markazlarida dars berayotgan repetitor-o'qituvchilar haqida bunday deb bo'lmaydi. Ular yaxshigina maosh evaziga, asosan, oliy ta'lim muassasasiga kirish niyatidagilarning savodini chiqarishadi. O'quvchilar ularni atayin izlashadi, darsga o'z vaqtida borishadi, kaltak yeb bo'lsa ham yaxshi o'qishga intilishadi. (Nima uchun o'quvchi maktabda 11 yil umrini sarf qilib, universitetga kirish oldi tag'in bir yoki bir necha yil tayyorlanishi kerak?) Aslida, katta maosh ham muammoni hal qiluvchi yagona yechim emas. Gap muallimning qadri, obro'si haqida ketar ekan, balki ta'lim tizimi xodimlarini ko'pgina majburiyatlardan xoli, erkin faoliyat yuritishiga qo'yib berish kerakdir. Hadeb yagona forma (hammaning ham imkoniyati yetavermaydi) talab qilaverish, maktab ta'miri uchun pul so'rash, murg'ak qalb egalariga ota-onasi soliqlarni vaqtida to'lab qo'yishini tayinlash (nima degan gap bu!?) – bunaqa bemantiq-u beo'ylov ishlar, tabiiyki, muallimni ham, o'quvchini ham ilmdan chalg'itadi, bezdiradi. O'qituvchi mana shunday topshiriqlarni bajarib yuraversinmi yoki o'z ustida ishlasinmi?

Muallimning maoshi ming, boringki, ikki ming dollar bo'lsin, ammo uning qadri chaqaligicha qolaversa, bundan nima naf?

Tabiiyki, erkak muallimlarga bu narsalar xush kelavermaydi. Ishoning, chet davlatda ishlayotgan mardikorlar orasida siz-u menga dars bergan ustozlar talaygina. Yo bo'lmasa, nega aksariyat bilimli yoshlarimiz xorijda o'qib, yaxshigina ishlab, o'zimni tiklab olsam bas, degan o'yda? O'z yurtida unib-o'sayotgan yoshlar taqdiri nahotki qiziq emas? Nima uchun bizda yurtsevarlik, xalqsevarlik ruhiyati faqatgina televizor va radiodan yangrab turadi, nega odamlarning gap-so'zida, yuzko'zida sezilmaydi? Savollar ketidan savollar, javob berishga kelganda, tilingizni tishlaysiz.

Aybni u yoki bu odamga ag'darishdan osoni yo'q. Nazarimda, har bir inson, u xoh kattakon amaldor bo'lsin, siyosatchi, yo kosib, farqi yo'q, oddiy bir xizmatchi bo'lsa ham ilmga muhabbat qo'ysin. Hatto biz e'tirof etayotgan o'qituvchilar ham shaxsiy rivojlanish qilsin, o'z kasbida kichik bo'lsa-da inqilob yasasin. Hech bo'lmaganda, bolalarga o'tiladigan ertangi mavzuga yaxshilab tayyorlanishga vaqt topa olsin. Axir qachongacha olim-u fuzalo ajdodlarimiz nomi bilan g'ururlanib yashaymiz, qachon ularning bilim maxzanidan bahramand bo'lamiz? Demak, mamlakatdagi hamma soha bir yo'sinda yuksalishi uchun barchamizning zimmamizda bir xil yuk turadi, u ham bo'lsa ilm-u hunar o'rganish, boshqalarga naf keltiradigan darajada salohiyatdor bo'lish!

Otash YASHIN

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORI SHERZOD NE'MATOV:

"SOG'LOM RAQOBAT HAMMAMIZGA KERAK!"

– Assalomu alaykum, domla! Bilamizki, bir necha yillardan buyon ta'lim sohasida faoliyat yuritib kelmoqdasiz. Yillar davomida yig'ilgan tajribalaringiz va bilimlaringiz bugungi rektorlik faoliyatingizda qanchalik qo'l kelmoqda?

– Vaalaykum assalom! Ish faoliyatimni ilmiy tekshirish institutida boshlaganman, 16 yil davomida ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullandim nomzodlik va doktorlik dissertatsiya ishlarini himoya qildim. 2016-yilda oliy ta'lim tizimidagi faoliyatimni kafedra mudirligidan boshlab, magistratura bo'limi boshlig'i, fakultet dekani va prorektor lavozimlarida ishladim. Oxirgi ikki yil davomida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida ilm-fan va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasida faoliyat olib bordim.

E'tibor bergan bo'lsangiz, oliy ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tajriba orttiribman, tabiiyki bu tajribalar bugun Shahrisabz davlat pedagogika institutida boshlangan faoliyatimda menga juda qo'l kelmoqda. Bugungi Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi ham shiddat bilan rivojlanmoqda, keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, rahbarlardan katta mas'uliyat va tajriba talab etilmoqda. Oliy ta'lim tashkilotini boshqarishda eng muhim omillardan biri bu istiqbolli rejalar tuzilayotganda, maqsadning aniq qo'yilishi va jamoa bilan ishlaganda topshiriqlarning to'g'ri berilishidir. Shu joyda tajribangiz sinovdan o'tadi va OTMni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugun biz institutning uzoq va yaqin istiqbolli rivojlantirish dasturini ishlab chiqib, bor e'tiborni ijroga qaratganmiz. O'ylaymanki, tajribaning qanchalik asosli ekanligi yaqin kelajakda institut faoliyatida namoyon bo'ladi.

– Bugun oliy ta'lim jahon miqyosida ham eng ko'p o'zgarishlar va yangiliklarga yuz tutayotgan soha hisoblanadi. Xo'sh, Shahrisabz davlat pedagogika instituti bugun qanday o'zgarishlar, yangiliklarni boshdan kechirmoqda?

– Oliy ta'lim tizimida tez-tez o'zgarishlar bo'lib turishi tabiiy, sababi texnika, texnologiya, yondashuvlar va umuman dunyoning o'zi shiddat bilan o'zgarib bormoqda, bu jarayonda yoshlarga berilayotgan bilimlar hamda yondashuvlar zamon talabiga mos bo'lishi shart.

Shu o'rinda, institutimizda ham kelgusi rivojlanish dasturlarini shakllantirishda jahon tajribasi, dunyoning nufuzli reytinglarida yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan TOP muassasalar tajribasi asos qilib olinmoqda. Bularga misol sifatida Polshaning Mari Sklodovska-Kyuri universiteti, Qozon federal universitetlarini keltirish mumkin. Ushbu mussasalar bilan malaka oshirish, amaliy va almashinuv dasturlarini hamkorlikda bajarish borasida kelishuvga erishdik.

Rektor huzurida

Xalqaro QS reytingida dunyo universitetlari o'rtasida 89-o'rinda bo'lgan Qozon federal universitetining Psixologiya va ta'lim fakultetiga 17 nafar professor-o'qituvchilarimizni malaka oshirishga yuboryapmiz. Eng muhimi, malaka oshirish dasturini ehtiyojdan kelib chiqib, bugungi talabni inobatga olgan holda hamkorlikda ishlab chiqmoqdamiz.

Institutda professor-o'qituvchilar faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida "Universitet 3.0" konsepsiyasi elementlari bosqich-ma-bosqich joriy etilyapti. Bunda nafaqat professor-o'qituvchilarning faoliyati shu konsepsiyaga mos bo'lishi, balki talabalarning ham o'qish jarayonlarida olayotgan bilim va ko'nikmalari shu qoidalarga asoslanishi talab etiladi.

– O'qituvchilik sharafli, shu bilan birga mas'uliyatli kasb hisoblanadi. Sizningcha, zamonaviy pedagogning portreti qanday bo'lishi kerak, o'qituvchilaringizni ishga olayotganingizda ularning oldiga qanday talablar qo'yasiz, qaysi jihatlariga e'tibor qaratasiz?

– Aynan hozir ham institutda professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish bo'yicha tanlov jarayonlari bo'lib o'tmoqda. Eng muhim jihat – bu ochiqlik va sog'lom raqobatning mavjudligida deb o'ylayman. Agar ishga olish jarayonida adolat bo'lmasa, xodimlar o'rtasida ishonch va fidoiylik bo'lmaydi, hamma o'z bilganicha ishlay boshlaydi, chunki avval boshidan talab noto'g'ri qo'yilgan bo'ladi.

"Zamonaviy pedagogning portreti qanday bo'lishi kerak?" degan savol hammani qiynab keladi. Yondashuvlar turlicha, chunki dunyoda sifatli ta'lim beradigan pedagoglarni tayyorlashning bir qancha tizimlari mavjud. Bir so'z bilan aytganda, professor-o'qituvchilardan bilim va doimiy izlanish talab etiladi. Izlanuvchan xodim o'zi tanlagan sohasidagi yangi zamonaviy metodlar va bilimlarni o'z vaqtida egallashga erishadi hamda dars jarayonlari davomida amalda qo'llab boradi. O'qituvchi ilm bilan doimiy shug'ullanishi lozim, chunki OTM o'qituvchisi faqat dars o'tishi emas, balki talabalarga berayotgan bilimini o'z ilmi orqali singdirishi talab etiladi.

– Domla, bugungi kun talabalaridan ko'nglingiz to'lyaptimi? Umuman, ular nimalardan voz kechishi va nimalarni odatga aylantirishi shart deb hisoblaysiz?

– Bugungi kun talabasi haqida gapirganingizda, beixtiyor o'zim o'qigan davr yodimga tushdi, aslida, inson ko'pincha o'zi bilan taqqoslab gapirgisi keladi. Barcha talaba ham bir xil emas, ular orasida bilimli, ilm olishga intiluvchan talabalar talaygina. Bugun ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatib berishimiz, ular uchun yaratilgan imkoniyatlar va qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan yutuqlar haqida muntazam ma'lumot berib borishimiz shart.

Mustaqil ta'lim olish va o'z ustida ishlash uchun ajoyib imkoniyatlar yaratib berilgan, nazarimda, bugungi kun talabalarida sabr va tirishqoqlik yetishmaydi. Hamma narsaga birdaniga erishish orzusida yuradilar. Lekin barcha muvaffaqiyatning kaliti bu bilim ekanligini, afsuski kech anglashadi. Shuning uchun bugun talabalarimiz, maqsadsiz, oxiri ko'rinmaydigan havasdan voz kechib, turli ijtimoiy tarmoqlarda sarflanayotgan vaqtini to'g'ri yo'naltirib, e'tiborni bilim olishga qaratishlari kerak.

Dunyoning boshqa davlatlaridagi talabalar bilan aloqalarni o'rnatib, ular bilan tajriba va bilim alishish juda katta foyda beradi. Bu jahon tajribasida sinalgan va ishonchli usullardan biridir.

– Institutning iqtidorli talabalari, ular erishayotgan yutuqlar haqida ijtimoiy tarmoqlarda o'qiymiz, ayrimlarining faoliyatlarini jurnalimiz orqali yoritamiz. Ular haqida ham aytib o'tsangiz.

– Bugun joylashgan hududi yoki shahridan qat'i nazar, yurtimizdagi istalgan OTMga borsangiz, talabalar orasida iqtidorlilari yetarlicha topiladi. Bizning institutda ham iqtidorli talabalar jamoasi mavjud, ular bugun turli ishlanmalar yaratishmoqda va turli sovrinlarni qo'lga kiritib, muassasamiz faoliyatiga o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Misol uchun, iqtidorli talabalarimizdan 5 nafari institutning ichki Suyima G'aniyeva nomidagi stipendiya sohibasi, 4 nafari Qashqadaryo viloyati hokimi sipendiyasi sohibi, 3 nafari "Mirzo Ulug'bek vorislari" respublika tanlovi g'olibi, 8 nafari esa nomdor davlat stipendiyalari sohiblaridir. Ular yaratgan innovatsion loyihalar respublikamizning turli hududlarida amaliyotga joriy etilgan. Masalan, xorijiy til yo'nalishi 4-bosqich talabasi Sadoqat Beg'amovaning imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz) bolalarning chet tilini o'rganishi uchun qulay bo'lgan 800 ta so'zdan iborat brayl alifbosidagi qo'llanmasi hamda audio shakldagi lug'at kitobi. Bu kitobni maxsus maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilar ijobiy qabul qilib, xorijiy tillarni o'rganish uchun qulay vosita sifatida foydalanib kelishmoqda.

Rektor huzurida

– Siz rektor sifatida talabalaringizga qanchalik yaqinsiz? Umuman, rektor va talabalar o'rtasidagi yaqinlik qay darajada muhim deb hisoblaysiz?

– Ish boshlaganimga ko'p vaqt bo'lmadi, ammo talabalarimga yaqinman deb o'ylayman, chunki institut bilan tanishishni aynan talabalar bilan uchrashishdan boshladim, bugunga kelib talabalarimning barchasi bilan yaqindan tanishishga ulgurdim desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Institutni boshqarishda, faoliyatini to'g'ri tashkil etishda talabalarning fikr-mulohazalari, ularni qiziqtirayotgan yoki qiynab kelayotgan masalalar yechimiga qaratilgan qarorlarni qabul qilish muhim hisoblanadi. Tasavvur qiling, talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun infrastruktura tashkil etmoqchisiz, ularning takliflarisiz buni qilib bo'lmaydi, chunki shu yaratilayotgan imkoniyatdan ular foydalanadilar, demak ular xohlagan shaklda va joyda tashkil etilishi shart, shundagina ushbu joy bo'shab qolmaydi, aksincha talabalar uchun sevimli joyga aylanadi.

Turli so'rovlar o'tkazib turish orqali ta'lim sifati, o'qituvchilarning dars jarayonlarini qanday tashkil etayotganliklari haqida doimiy ma'lumotga ega bo'lib boraman, bu kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga yordam berishi mumkin.

Xullas, talabalar bilan doimiy muloqot maydonlarining mavjud bo'lishi va ular tomonidan ko'tariladigan masalalar yechimiga e'tibor qaratish har bir OTM faoliyatida muhim hisoblanadi.

– ShDPI jamiyatga ustozlarni yetishtirib beradi. Sizningcha, bizda pedagoglar yetarlicha e'tirof va mavqega ega bo'lishmoqdami?

– Oxirgi yillarda pedagoglarga katta e'tibor qaratilmoqda, ularning moddiy ta'minoti, doimiy malaka oshirishlari va ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratib berilmoqda. Sir emaski, yaqin-yaqinlargacha pedagoglar jalb qilinmagan xizmat turi yo'q edi, paxta terimidan tortib, ko'cha supurishgacha.

Prezidentimizning siyosiy irodalari hamda Yangi O'zbekistonni faqat va faqat bilimli, ilmli yoshlar barpo etadi degan tamoyil asosida ish olib borayotganliklari, ta'lim tizimiga qaratayotgan e'tibor va g'amxo'rliklari natijasida bugun bu illatlarga barham berildi. Jamiyatda o'qituvchilarning mavqeyi yuksalib, barcha ota-onalarning farzandlarini bilimli qilib tarbiyalashga bo'lgan intilishlari ortib bormoqda. "Najot ta'limda – najot ilmda" degan shiorlarimiz bor ekan, o'qituvchilik kasbi ulug'lanaveradi. Ustozini ulug'lagan yurtning kelajagi buyuk bo'ladi.

– Avval Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida ishlaganingizni bilamiz. Shu sohani ichidan bilgan inson, mutaxassis sifatida bugun ta'lim tizmida nimalarni isloh qilish kerak deb o'ylaysiz?

– Eng avvalo, o'zimizni isloh qilishimiz kerak. Sababi bugun oliy ta'lim tizimi zamon talablari darajasida isloh qilinmoqda, nufuzli xalqaro OTMlar tajribalari transformatsiya qilinib, ta'lim tizimiga joriy etilmoqda, normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich yangilanmoqda. Bu islohotlarni amaliyotga to'g'ri anglagan holda joriy eta oladigan kadrlarga ehtiyoj katta. Shu munosabat bilan professor-o'qituvchilarimizning xorijda malaka oshirish va tajriba o'tashlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud, "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan xorijda ta'lim olish va doktoranturada o'qish imkoniyatlari yaratilgan. Bulardan yangi xalqaro tizimlarni o'rganish va o'zimizda joriy etish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, ta'lim kontentlarini ham zamon talablari va amaliyotda mavjud tajribaga mos ravishda yangilab borishimiz kerak. Zamonaviy infrastruktura, moddiy texnik baza va kitoblar ta'minotiga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim deb o'ylayman.

– Kitoblar mutolaasiga ham vaqt ajratib turasizmi? Eng so'nggi yoqtirib o'qigan asaringiz qaysi?

– Kitob o'qish bu qaysidir davrda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar tahlili yoki qaysidir buyuk insonning tajribalarini yaxlit tizim sifatida o'rganishning eng oson yo'li hamda orttirilgan tajribadan unumli foydalanish juda samarali. Shu sababdan men ham imkon topdim deguncha kitob o'qib turaman. Oxirgi o'qigan, to'g'rirog'i, hali tugatmagan kitobim bu Uolter Ayzeksonning Stiv Jobs haqidagi asari. Bu kitobni barcha talabalarimga o'qishni tavsiya qilyapman va tugatishim bilan ularga beraman. Bu asar qanday mashaqqat bilan bilim olish va olingan ilmdan to'g'ri va samarali foydalanishni o'rgatadi. Albatta, o'zimizning nodir asarlarimizni ham o'qishni tavsiya qilaman.

– Manfaatli suhbat uchun tashakkur, domla!

– Jurnal faoliyatiga omad tilab qolaman!

Maqsad OBIDJON suhbatlashdi

"SHARQ NAPOLEONI"



IBROHIMBEK LAQAY SIYMOSI HAQIDA

Mulla Muhammad Ibrohimbek Chaqaboy to‘qsabo o‘g‘li 1889-yil Dushanbe shahridan 12 kilometr uzoqlikda Kappon daryo bo‘yidagi O‘zbek Laqaylarining so‘lim Ko‘ktosh qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi 80 uylik Ko‘ktosh qishlog‘idagi laqay urug‘i oqsoqoli bo‘lib, amir tomonidan to‘qsabo (polkovnik) unvoni berilgandi. Chaqaboy to‘qsaboning to‘rt ayolidan 6 o‘g‘il, 6 qizi bo‘lib, Muhammad Ibrohimbek ulardan eng kichigi edi. U avvaliga maktab, so‘ng bir yarim yil davomida mahalliy madrasada saboq olgan.

Ibrohimbek amaldor otasi davrida qishloq to‘ylarida uloq chopib, kurash tushib, el orasida nomdor polvon degan nom chiqaradi. 1911-yil otasi vafot etgach Hisor begi xizmatiga kiradi va 1919-yilda Hisor begi huzurida qilgan xizmatlari evaziga qorovulbegi unvonini oladi.

1920-yil sentabrida Qizil armiyaning Buxoro amirligiga shiddatli hujumi oqibatida Amir Olimxon mag‘lubiyatga uchrab, Sharqiy Buxoroga chekinishga majbur bo‘ldi. Davlatmandbek laqay urug‘lari oqsoqollari bilan qurultoy o‘tkazib, ularni sovet hukumatiga qarshi yalpi kurashga da’vat etadi. Qurultoyda Eshon Sulton rahbarligidagi Hisor laqaylari ham, Ko‘r Ortiq dodho Ashirov boshliq Baljuvon laqaylari ham umumiy rahbarlikni bir ovozdan Ibrohimbek Chaqaboy to‘qsabo o‘g‘liga topshiradi. Bunda Ibrohimbekning el orasidagi taniqli pahlavon, bir so‘zli mard inson sifatidagi yuksak obro‘si, o‘zining o‘ta jasur tabiati ham asosiy omil bo‘ldi. Uning maslahatchisi va tayanchi, laqay urug‘i rahnamosi, qaynotasi Abduqayum parvonachi Ulayev edi.

To‘qson yil avval (1931-yillar) ayrim hukumatga yaqin insonlar orasida Afg‘onistondan Ibrohimbek hujumga o‘tdi degan mish-mishlar avj olib, butun Turkiston ahlini bir zum qo‘rquv va ozgina umid chulg‘agan edi. Sho‘ro hukumatiga qarshi ko‘p yillar muvaffaqiyatli kurash olib borgan, Buxoro amirligida devonbegi, to‘pchiboshi va lashkarboshi lavozimlariga ko‘tarilgan o‘zbek laqay bahodiri Ibrohimbek aslida kim bo‘lgan?

Yaqin tarix sahifalari



1922-yil Dushanbe shahrini bosqinchilardan ozod etishga kirishdi. 1923-yil bahorda Ibrohimbek qo'l ostida faqat Sharqiy Buxoroda 47 ta qo'rboshi dastalari harakat qilar, ayrim ma'lumotlarga ko'ra askarlarining soni Hisorning o'zida 20 ming kishi atrofida bo'lgan. 1923-yil yozida Hisor vodiysi va Panj daryosi atrofida qizil armiyaga qarshi qator muvaffaqiyatli harbiy harakatlarni o'tkazdi. 1925-yil yanvarda Ibrohimbek Surxon vohasida, Sherobod – Boysun atroflarida sho'ro qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi.

Amir Olimxon Sharqiy Buxoroda uzoq tura olmasligini anglab, Afg'oniston hududiga chekinishga majbur bo'ladi. Boisi Dushanbe va uning atroflarida amir va uning saroy ahli uchun turar joylar ham, ot-ulovlar uchun ozuqa zaxiralari ham mavjud emasdi. Qolaversa, qizil armiya kun sayin Afg'oniston bilan chegaralarni nazoratiga olib, Buxoro amirining tashqi aloqalarini qiyinlashtirayotgan edi. 1921-yil boshlari Amir Olimxon rahbarligida Buxoro qo'rboshilarining qurultoyi o'tkazildi. Unda Abduqayum Parvonachining maslahati bilan Ibrohimbekka "Islom lashkarboshisi" unvoni berilib, butun qo'shin qo'mondoni etib tayinlandi. Ibrohimbek Chaqaboy to'qsabo o'g'li qisqa muddatda 10 mingdan ortiq askar to'plab, Ko'lob, Baljuvon, Qorategin, Darvoz, Hisor viloyatlarining katta qismini qizil qo'shindan tozalashga erishdi.

Farg‘ona vodiysida tinchlikka erishgan sovet hukumati asosiy kuchlarini Tojikiston va O‘zbekistonning tog‘li viloyatlariga yo‘naltirib, Ibrohimbekka qarshi kurashni avj oldiradi. 1926-yil 21-iyunda keskin janglardan so‘ng Ibrohimbek Afg‘oniston hududiga o‘tib ketishga majbur bo‘ladi. 1926-1929-yillari Kobul yaqinidagi Qal’ai Fotuda – sobiq amir Said Olimxon qarorgohida yashaydi. Biroq Ibrohimbek boshchiligidagi muhojirlar Afg‘onistondagi siyosiy kurash, harbiy mojarolarda ishtirok etishga majbur bo‘ladi. Sababi sovet ayg‘oqchilari qay yo‘l bilan bo‘lmasin Amir Olimxonni yo‘q qilishga urinardi. Shu bois afg‘on hukumati bilan aloqasini buzish niyatida xilma-xil hiyla-nayranglarni ishga solardi. O‘z amirining bu qadar ojiz ahvolga tushishi, ayniqsa, Shimoliy Afg‘onistonga sho‘rolar zulmidan qochib kelayotgan yuz minglab muhojirlarga sovet josuslari qutqusi bilan afg‘on harbiylari tomonidan zulm o‘tkazilayotganiga Ibrohimbek chiday olmaydi. Yigitlarini to‘g‘ri afg‘on armiyasiga qarshi jangga boshlaydi. Avvaliga uning bu harakati azaldan Afg‘oniston hududida yashayotgan o‘zbek va turkman qavmlari oqsoqollari tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. Ibrohimbek askarlari afg‘on qo‘shini ustidan bir necha marta g‘alaba qozonib, Xonobodda 700 nafar afg‘on askarini yo‘q qiladi. Mullo Ahmadbiy Aylobod atrofida 280 afg‘on harbiysini mahv etgach, ular janubga chekinadilar.

Ibrohimbek 1928-yil oxirlarida Shimoliy Afg‘onistonda mavqeyini mustahkamlab, qo‘lga kiritilgan yerlarga yigitlarini bek etib tayinlaydi. Jumladan, Rustakda Ko‘gan Sheraliyev, Chayabga Eshon Isoxon, Tolixonga Ali Mardon dodho va ukasi Qoraqullar, Imom Soibga Ko‘r Ortiq dodho va Alyat polvonlar bosh bo‘ladi. Shunday bir sharoitda tashvishga tushib qolgan afg‘on hukumatining sovet davlati bilan aloqasi mustahkamlanadi. Mahalliy turkman va o‘zbek oqsoqollariga nisbatan ba’zi imtiyozlar joriy etilib, ularni bu tarafga og‘dirishga erishiladi. Go‘yo bek bo‘lib olgan o‘zbek qo‘rboshilarning mahalliy aholini talayotgani haqidagi mish-mishlar avj oldiriladi. Gap-so‘zlardan keyin Ibrohimbek yigitlari mahalliy turkman va o‘zbeklarning yordam-qo‘llovidan ayriladi. Qiziloyoq Eshon Obid xalifa ham Shibirg‘ondan yordamini to‘xtatadi. Afg‘on hukumati Amir Olimxondan Ibrohimbek va uning qo‘shinini zudlik bilan o‘z hududidan chiqib ketishini talab qila boshlaydi. Bu esa ular uchun fojiali oqibatlarni keltirib chiqaradi.

1930-yil 24-25-may kunlari qo'rboshilar qurultoyi chaqirilib, bo'lg'usi jang harakatlari va chegaraning turli nuqtalaridan Tojikiston hududiga o'tish masalalari kelishib olinadi. Ibrohimbek SSSRga qarshi yalpi hujum muddati qilib 3-iyul kunini belgilaydi. Biroq josuslar orqali bu rejadan voqif bo'lgan sovet rejimi rahbarlari zudlik bilan qarshi zarba uyushtiradi. Ular 1930-yil 20-iyunda ikkinchi marta Afg'onistonga bostirib kiradi. Bir hafta davom etgan janglarda Ibrohimbekning 839 jangchisi, shuningdek, ko'plab tinch aholi vakillari o'ldiriladi. Kuchlar teng bo'lmagan jangda Ibrohimbek mag'lubiyatga uchrab, yaqin safdoshi O'tanbek qo'rboshi va harbiy kuchlari bilan Qora Botir tog'lariga chekinadi.

1931-yil boshlariga kelganda Ibrohimbek harakatini faollashtirib, muhojirlarning tarqoq kuchlarini yana birlashtiradi. Choltovda bo'lgan qo'rboshilar qurultoyida aholini sovet hukumatiga qarshi yalpi qo'zg'olonga da'vat etuvchi murojaatnomalar, shuningdek, avvalgi xatolaridan xulosa chiqarib, endi kichik-kichik guruhlarda bir necha hududdan hujumga o'tishga qaror qilinadi. Ibrohimbek 1500 kishilik saralangan qo'shini va sakkiz qo'rboshisi bilan 1931-yil 30-martda Tojikiston Respublikasi hududiga kirib keladi va ma'lum g'alabalarni ham qo'lga kiritadi. Ayniqsa, sovetlar hududiga kiritilganlar aholiga Ibrohimbek tayyorlagan murojaatnomalarni ham tarqatishga erishadi. Shunday murojaatnomalardan misol keltirsak.

"Murojaatnoma!

O, birodarlar! Bolshevik hokimiyati zulmi ostida qolgan qizil askarlar, ishchi va xalq. Sizga ma'lum bo'lsinki, musulmon, rus yo boshqa millat va qavmlar, ular hokimiyatni olgandan beri yillar davomida siz Vatan, din, millat-u oilangizdan, mulkingizdan ajraldingizlar. Balki, yaqinda qalbingizni taningizdan ham ajratib olishar. Shukrki, Allohning inoyati bilan Afg'oniston, Angliya va boshqa xorij davlatlari xotirjamligimizga keldilar. Sizni tahqir va zulmdan ozod etishga, hokimiyat zo'ravonliklariga qarshi kurashga bosh qo'shing, diningizni qutqaring! Xotirjamlikni qutqaring, rizqingiz kengayadi. Sovetlardan sizga yaxshilik yo'q! Ular faqat zulm va yo'q qilarlar. Bu sizga eng yaxshi ma'lumdir. Shartsiz Siz kurash boshlang, hokimiyatini yo'q qilarg'a, o'zingizni ozod eting va din ravnaqi uchun ularg'a qarshi kurashga kirishing. Salom sizlarga!"

Ibrohimbekning ikki muhri bilan tasdiqlangan.



"Murojaatnoma!

Barcha do'stlar – tatarlar, qozoqlar, armanlar, ruslar, o'zbeklar, tojiklar va boshqa millatlar bolsheviklar zulmi ostidalar. Ma'lumingiz Allohning yordami ila men Amudaryodan o'z armiyam ila Buxoro hududiga qadam bosdim! Qadrli birodarlar! Yillar davomida Siz bolsheviklar hukumati zulmi ostidasiz. Bugun biz o'z vatanimizni, xalqimizni, dinimizni ozod etishga kirishdik va sovetlarni yo'q qilishni istadik. Keling, birlashaylik!"

Muhr. Ibrohim. 1349-yil 20-zulqa'da (

Sovet hududida aholini yalpi qo'zg'olonga chaqirish rejasi minglarcha chekistlarning xizmati tufayli chippakka chiqadi. Biroq Ibrohimbek qo'shini bilan sho'ro askarlari o'rtasida aprel-iyun oylarida shiddatli janglar bo'lib o'tadi. Ularga qarshi bolsheviklar tomonidan tanklar, aviatsiya, havo hujumi kuchlari va zaharli gazlar ishlatiladi. 12-iyunda Oqbosh tog'idagi so'nggi jangda Ibrohimbek qo'shini mag'lubiyatga uchrab, o'zi ham yaralanadi. 1931-yil 23-iyunda chekistlar tomonidan qo'lga olinib, Toshkentga olib kelinadi.

1931-yil 28-iyun kuni OGPU mas'ul mulozimi Durov tomonidan o'tkazilgan so'roqda Ibrohimbek "Biz jangga kirishdan oldin Yusuf Muqumboyev orqali Millatlar Ligasiga chiqib, xalqaro yordam bo'lishidan umid qilgan edik. Men sovetlar zulmi ostiga tashlangan yurtimni, ularning qo'li ostidan ozod qilish orzusida hayot-mamot jangiga kirganman. Qizil askarlarga qarshi kurash hayotim mazmuni bo'ldi" deydi. Shuningdek, o'zining Usmonxo'ja rahbarligidagi jadidlar hamda ruslarga qarshi qo'liga qurol tutganini aytadi. 1921-yil kuzida Anvar poshsho kelganida Amirning farmoni asosida uni 90 nafar askari bilan qurolsizlantirganini, so'ng muzokaralar natijasida Anvar poshshoning rahbarligini tan olganini aytadi. Shu o'rinda Ibrohimbekning safdoshlari bo'lgan ayrim laqay bahodirlari haqida ma'lumotlarni keltirsak.

Ibrohimbekning eng ta'sirli maslahatgo'ylaridan biri uning qaynatasi laqay urug'ining rahnamosi, dang'aralik Abduqayum parvonachi Ulayev edi. Beshbuloq qishlog'idan Alimardon dodho Muhammedov o'zbek laqaylarning "Berdaqli" qabilasi boshlig'i bo'lib, 1920-yildan Ibrohimbekning maslahatchisiga aylangandi. 1926-yil Afg'onga o'tgach, Ibrohimbek bilan Bachai Saqo tarafida Nodirxonga qarshi urush olib borgan. Alimardon dodho 1931-yil aprelda 200 odami bilan aholi oralab ommani jangga chaqiradi. 10-aprel kuni 18 soat davomida 81-kavpolk bilan shiddatli jang olib boradi. Kechga yaqin Jetimtovga chekinib, 13-aprel kuni Yabuga odam yuborib, aholidan ozuqa, ot-ulov va qurollar yig'ishga odamlarini yuboradi.

Yaqin tarix sahifalari

Ko'kan to'qsabo Kenjayev O'zbek laqaylarining "Kurdek" qabilasi Jaqqa urug'idan bo'lgan va u Tutkovul qishlog'ida tug'ilgan. U 1926-yil Ibrohimbek bilan Afg'onistonga o'tadi. Ibrohimbek unga to'qsabo unvonini berib, Chayab va Rustakka bek etib tayinlagandi. 1931-yil martida Tojikistonga kirib, 16-aprelgacha Nayzabuloq Mundaklar hududlarida Qizil armiya bilan urush olib borgan. Uning talonchi, bosqinchilar qo'li ostida qolgan vatanda tirik yashagandan ko'ra, janglarda o'lganimiz yaxshi degan gapi mashhur edi.

Ko'r Ortiq dodho Ashirov Baljuvon laqaylarining "To'rto'g'il" urug'idan. 1920-yilgacha 25 000 qo'y, yuzlab ot, tuya va qora mollarga egalik qilgan Ortiq dodho Ashirov butun boyligini ozodlik kurashiga sarf etadi. 1931-yil 300 odami bilan Tojikiston hududiga kirib, Sassiqbuloq qishlog'ida GPUning 3 odamini o'ldirib, taslimchilikdan voz kechadi. So'roqda "Ha, biz sovetlarning qudratini juda yaxshi bilar edik. Ammo hayot-mamot jangiga kirganimiz uchun ham eng so'nggi kuchimiz qolgunicha kurash olib bordik", degan edi.

Alyat polvon Elmirzayev laqaylarning "Dovud" urug'idan bo'lib, 1923-1926-yillari akasi Ismat bilan birga jang olib boradi. 1926-yil akasi vafot etgach, Ibrohimbek bilan Afg'onistonga chekinadi. 1929-yil 5-oktabr kuni yigitlari bilan razvedka maqsadida sovetlar hududiga kiradi. Bir necha muvaffaqiyatli janglardan so'ng 1930-yil Afg'onistonga qaytadi. 1931-yil mart oyida 200 yigiti bilan Qizil armiyaga qarshi shiddatli janglar o'tkazadi.

Yana bir laqay botiri Ko'gan Sheraliyev edi. Sho'rchi qishlog'idan 34 yoshli Ko'gan 1926-yil Afg'onistonga chiqib ketib, yuz nafar yigiti bilan Ibrohimbekning shaxsiy qo'riqlash xizmatida bo'lgan. 1931-yil janglarda deyarli barcha yigiti shahid bo'lgunicha jang olib borgan. Azim Marqa Ostonaqulov Ko'ktosh laqaylarining "Marqa" urug'i oqsoqoli, Ibrohimbekning yaqin odami edi. Shuningdek, Ibrohimbek qo'shini tarkibida laqaylardan boshqa Buxoro Shayxul islomining o'g'li, taniqli eshonlardan Sulaymon Salohiddinov (Eshoni sudur) ham bo'lgan. U 1931-yil aprelda Amirdan ruxsat olib Ibrohimbekka maslahatchi sifatida Tojikiston hududiga kirgan. Tergovchining yoshingiz katta ekan. Qanday

bu jangga rozi bo'ldingiz, degan savoliga: "Ha, sovetlar juda kuchli ekan. Balki, buyuk va qudratli sovet davlati, bir qari insonning xatosini kechirar?" deb javob beradi. Eshon Is'hoqxon Mansurxonov 1920-yil Buxoroni tark etib, 500 odami bilan Xurrambek yigitlari bilan birga harakatlangan. 1928-yil Afg'onistonga o'tib, Ibrohimbek uni shimoliy Bobotog' va Chayab viloyatlarining hokimi etib tayinlagan. 1931-yil aprelda 200 odami bilan kurasharkan, Hisorda sovetlarning samolyotdan qilgan hujumiga dosh beradi. Shohasan Imomqulov 1931-yil 17-aprelda 200 odami bilan 12 soatlik jangda uchuvchi Osyannikov, Makunina, texnik Sadkovlarni qo'lga olib, shu jangda jami 17 nafar qizil askarni o'ldirgan.

1932-yil 16-mart kuni Ibrohimbek Laqay boshliq 16 nafar safdoshiga nisbatan "1921-1926-yillar Sharqiy Buxoroda sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borgan, 1929-yil inglizlar topshirig'i asosida shimolga yurish qilib, 1931-yil aprel oyida mingga yaqin yigitlari bilan TojSSR hududiga bostirib kirgan" deb, O'zSSR JKning 58-, 60-moddalarini qo'llab ayblov e'lon qilinadi. 1932-yil 13-aprel OGPU qoshidagi maxsus hay'at tomonidan Ibrohimbek Cho'qaboyev, Sulaymon Salohiddinov (Eshon sudur), Abduqayum Parvonachi Udayev, Eshon Isoxon Mansurxonov, Alimardon dodho Muhammedov, Ko'r Ortiq dodho Ashirov, Ko'gan Kenjayev, Toshmat Xo'jaberdiyev, Mullaniyoz Parvonachi Hakimov, Alyat polvon Elmirzayev, Shohasan Imomqulov, Ko'ganbek Sheraliyev, Mulla

Ahmadbiy Saidov, Mirza Qayumcherov, Azim Marqa Ostonaqulov, Eshonpolvon Bahodirzoda – jami 16 nafar kishiga oliy jazo (o'lim) berildi. Mullaniyoz Parvonachi Hakimov tergov jarayonida halok bo'ldi.

Shu zayl o'n yil davomida Qizil armiyaga qarshi ayovsiz kurash olib borgan Ibrohimbek va uning safdoshlari 1932-yil 31-avgust kuni Toshkentda qatl qilinadi. Uning jasoratini nafaqat do'stlari, balki Ibrohimbek bilan jang olib borgan dushmanlari ham tan olgan. O'tgan yillar mobaynida "Laqaydan chiqqan Bonapart" – Ibrohimbekning xotirasiga ko'plab maqolalar, asarlar yozildi. Ozodlik kurashchisi va safdoshlari xalqimiz yodidan o'chmaydi.

Bahrom IRZAYEV
tarix fanlari doktori (PhD)

"TIRISHQOQLIK CHINQTIRADI!"

DILNURA YO'LDOSHEVA

O‘ZIM HAQIMDA

“Assalomu alaykum, hurmatli Shavkat Mirziyoyev, men Dilnura Yo‘ldosheva, sizga aytmoqchi bo‘lgan ko‘plab g‘oya va fikrlarim bor” – deya har kuni oyna qarshisida o‘zimga o‘zim xuddi prezident bilan uchrashgandek nutq so‘zlar edim. Yoshligimdan prezidentimiz bilan uchrashish eng katta orzularimdan biri bo‘lgan. Bu orzuni amalga oshirish istagi hech tinchlik bermas, o‘z ustimda ko‘proq ishlash uchun motivatsiya bo‘lardi.

Bilganingizdek ismim Dilnura, Xorazm o‘lkasida ziyolilar oilasida tug‘ilganman. Hozirda Birmingham universitetida “Mathematical Economics and Statitistics”, ya’ni matematikaga asoslangan iqtisod va statistika yo‘nalishida 2-bosqich talabasiman. Esimni taniganimdan buyon chet elda o‘qish maqsadim bor edi. Sinfdoshlarimning “Qaysi universitetda o‘qimoqchisan?” degan savoliga “Angliyaning nufuzli universitetlaridan birida o‘qiyman” deya javob berardim. Ularning javobim ustidan kulishlari esa meni maqsadim yo‘lida yana ham ruhlantirar edi.

ILK TA’LIM

Dastlab, umumta’lim maktabida o‘qidim, keyinchalik o‘rta maktabni tumanimizdagi ixtisoslashtirilgan maktab internatida davom ettirdim. 8-sinfni tugatib, Prezident maktabi haqida eshitib qoldim va shu maktabda o‘qish orzusi qalbimda alanga oldi. Bor imkoniyatim bilan shu maktabga tayyorlana boshladim. Imtihonlarni topshirib, intiqlik, duo va iltijo bilan natijalarni kutganim hech ham yodimdan chiqmaydi. Esimda, imtihon javoblari chiqqanda, o‘zimni oxirgi 10 talikdan qidirganman, chunki men uchun eng oxirgi bo‘lish ham katta mo‘jiza edi. Eng so‘nggi 10 ta o‘rindagi o‘quvchilar ichidan o‘z ismimni topa olmagach, yig‘lashga tushdim (Hatto yuqoridagi o‘rinlarni qarab ham ko‘rmabman). Keyinroq dadam kelib, meni tabrikladi va 6-o‘rinda maktabga qabul qilinganimni aytdi. Shundan so‘ng Xiva shahridagi Prezident maktabida viloyatimizning eng sara yoshlari bilan o‘qishni boshladik. Eng kuchli va bilimli ustozlardan ta’lim oldik.

Men matematika, fizika va informatika fanlariga ixtisoslashgan guruhda o‘qidim. O‘qishni tamomlagach xalqaro IELTS A level imtihonlarini muvaffaqiyatli yakunlab, chet elning top universitetlariga ariza topshirishni boshladim. Shukrki, dunyoning TOP 300 reytingidagi 12 ta universitetga qabul qilinib, grant sohibasi bo‘ldim. Keyingi manzil Angliyaning Birmingham universiteti...

BIRMINGHAM UNIVERSITETI...

Angliyada ta'lim, asosan, "research and autonomous learning", ya'ni izlanish va mustaqil o'rganishga asoslangan. Men tahsil olayotgan Birmingham universitetida ham shunday. Amerika ta'limidan farqli tarafi, bizda katta topshiriq va loyihalar beriladi. Talabalardan darsda berilgan bilimlardan tashqari qo'shimcha izlanib o'qish talab etiladi. Har semester oxirida bo'lib o'tadigan imtihonlar anchayin jiddiy, ularga kuchli tayyorgarlik zarur va natija maksimal balning 40 foizidan oshishi lozim. Professorlarimiz juda ham bilimli va samimiy, talabalarga yordam berishni yaxshi ko'radigan insonlar. Har hafta ular bilan qo'shimcha dars soatlari mavjud, mavzularni o'zlashtirishda qiynalgan talabalar borib qo'shimcha dars olishlari mumkin.

Universitetimizda har xil akademik, ijtimoiy va diniy bayram va tadbirlar o'tkaziladi. Talabalar uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Universitemiz ko'plab nufuzli universitetlar va tashkilotlar bilan shartnoma tuzgan. Talabalar turli xil dasturlar asosida boshqa universitetlar va kompaniyalarda amaliyot o'tash imkoniga ega. Bu uchun ham o'sha dasturning maxsus grantini yutib olish zarur. Qolaversa, universitetimizda 56 turdagi sport mashg'ulotlari, 300 ga yaqin talabalar klublari va 10 ta chet tillari uchun kurslar tashkil etilgan.

ANGLIYA HAYOTI

Angliya hayot tarzida ilk e'tiborimni tortgan jihat yoshlarning doimiy sport bilan shug'ullanishi bo'lgan. Shuning uchun ular hamisha sog'lom, energiyaga boy va harakatchan. Bu jihat menda ham sportga qiziqish uyg'otdi va men tez-tez sport zaliga borishga odatlandim (asosan, tennis o'ynash uchun). Yana bir menga yoqqan jihat odamlarning juda ham xushmuomala ekanligi. Arzimagan holat uchun tortishishmaydi, "uzr, rahmat, kechirasiz" kabi so'zlar bilan kelishib ketishadi.

YO‘QOTGANLARIM VA TOPGANLARIM...

Ko‘pchilik chet elda o‘qishni ideal tasavvur qilishadi. Osmono‘par binolar, go‘zal tabiat va shaharlar. Aslida, esa chet elga o‘qish uchun ketgan o‘smir(qiz yoki yigit)ga mustaqil yashashning ko‘plab qiyinchiliklari bor. Mas’uliyat, yolg‘izlik, oila a’zolar va do‘stlarni sog‘inish odamni ruhiy jihatdan charchatib qo‘yadi. Sizsiz nishonlangan bayramlar, ota-onangizning yoshi o‘tib borishi, yangi tug‘ilgan jiyan va qarindoshlar, katta bo‘lib o‘zgarib ketgan uka va singillar... Bularning barchasi sizdan ko‘p shirin xotiralar o‘g‘irlanganini eslatib, qalbingizni tirnaydi (har holda menda shunday). Lekin shu qiyinchilikardan o‘tish insonni chiniqtiradi, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Ezgu maqsadlar yo‘lida intilishdan to‘xtamasangiz, erishganlaringiz yo‘qotganlaringiz uchun arzirli bo‘lib boraveradi.

Inglizlarning o‘zbekistonlik talabalarga nisbatan munosabati yaxshi. Mamlakatimiz haqida so‘zlab bersam, O‘zbekistonga juda ham qiziqib qolgani, sayohat qilish istagi paydo bo‘lgani haqida aytishadi. Odatda, kunim badantarbiya yoki sayr bilan boshlanib, darslarga borish, darsdan so‘ng kutubxonada dars tayyorlash, qo‘shimcha til to‘garaklari, sport mashg‘ulotlari va talabalar klublariga qatnashish bilan o‘tadi.

HAMISHA OLG‘A BORING!

Nasib etsa, magistraturani texnologiya va AI bilan bog‘liq sohada dunyoning top 10 ta universitetlaridan birida o‘qimoqchiman. Kelgusi yil Angliyaning top kompaniyalarida amaliyot o‘tab, olgan bilimlarimni amalda qo‘llashni o‘rganish niyatidaman. Yoshlarga maslahatim shuki, o‘z oldingizga katta orzu va maqsadlar qo‘yishdan qo‘rqmang. Hamisha olg‘a boring. Marra – eng tirishqoq va chidamlilarnikidir.

(“O‘zbekiston talabasi” jurnali uchun Angliyadan maxsus)

TANQIDDAN SO'NG

Universitetga endi kirgan paytlarimiz edi. Barcha talabalar qatori universitetda ko'rgan insonimiz idealimizdagi biz yetishishni orzu qilgan odam bo'lib ko'rinadigan paytlar. Fakultetda to'rtinchi kurslarga ergashib, ularni katta qiziqish bilan kuzatib, men ham qachon to'rtinchi kurs bo'lar ekanman, degan o'y-xayollar bilan kunni kech qilardim. Yotoqxonamizda ikki haftada bir o'tkaziladigan she'rxonlik to'garagida o'qiydigan arzirli bironta she'rimiz bo'lmasa-da, orqa qatorda bizga ham navbat berisharmikan, deb qiziqsinib qarab turardik.

O'quv yilining boshi, fakultetdagi talabalar bir-biri bilan tanisha boshlagan paytlar. Bir kuni shunday tanishlardan biri to'rtinchi kursda o'qiydigan akamiz men xohlasam to'garakning keyingi soniga Yozuvchilar uyushmasidan shoirlarni taklif qilishini aytdi. Nima? Shoirlar? Bizni yotoqxonamizga-ya? To'g'risi, boshida ishonmadim. Hazillashyapti deb o'yladim. Bizni to'garakka shoirlar kelsa-ya? Qarasam, akamiz jiddiy aytyapti. O'z navbatida men jon-jon deb rozi bo'ldim. Rozi bo'ldim-u, ayni paytdan boshlab to'garak o'tkaziladigan kunni intiqlik bilan kuta boshladim. Hatto, kechalari uyquni nasiya qildim.



Xullas, men intiqlik bilan kutgan kun keldi. Bir kun avval uxlamagan bo'lsam-da bosh unchalik karaxt emas, hatto toliqish ham yo'q edi. She'rxonlik to'garagi o'tkaziladigan "Ma'naviyat xonasi" bugun juda yorug' va fayzli edi. Hatto qandaydir o'zgacha salobat mujassamlashgandi xonaga. Va nihoyat shoirlar ham kelishdi. Men esa katta hayajonda shoirlar qanday bo'lar ekan, degan savolga asta-sekin javob topa boshladim. Shoir akalar birma-bir o'zlarini tanishtira boshlashdi. Qisqa tanishuvdan so'ng ko'pchilikni kuttirmay she'r o'qishga o'tib qo'ya qolishdi. Murg'ak tasavvurim bilan shuni angladimki, shoirlar ham boshqalar qatori bir-biriga hazil qilar ekan. She'rlar o'qilib, mutoyibalar bo'lgandan so'ng shoir akalardan faqat biz she'r o'qiyapmiz, yoshlardan ham eshitaylik, degan taklif tushdi. Tabiiyki, menda hayajon battar orta boshladi. Yana ular aytdiki, eng yaxshi she'r o'qigan talabaga kitob sovg'a qilisharkan. Sovg'a. Sovg'ani katta-kichigi bo'lmaydi. O'zi mushtday bo'lsa ham ko'ngilni tog'day qiladigan narsa sovg'a-da.

Sovg'ani eshitgandan so'ng talabalar bir-biridan balandroq ovozda she'r o'qiy boshlashdi. Shu orada shoirlarning bu yerga kelishida tashabbus ko'rsatgan akamiz meni ularga tanishtirishni lozim topdi. Shoirlar mening she'r o'qishimni talab qilishdi. Aniq esimda, Rauf Parfining "Bir qushcha derazam yonida O'tirar parishon va g'arib", deb boshlanadigan she'riga ergashib yozilgan she'r edi. U paytlar kimdirga ergashib yozmasak yozolmaydigan paytlarimiz ham edi-da. She'r to'lig'icha yodimda yo'q, ammo, ba'zi satrlari va umumiy mazmuni yodimda saqlanib qolgan, chunki...

Chunki, men o'qigan she'r eng yaxshi she'r deb topildi. Eng yaxshi she'r! Bunga akaning meni ular bilan tanishtirib qo'ygani sabab bo'ldimi yoki she'r haqiqatan ham tuzukmidi, bilmadim, ammo men g'olib bo'ldim. Sovg'ani ham oldim. Bu hozirgi o'zbek yozuvchilarining eng yaxshi hikoyalaridan jamlangan to'plam edi. Shunday qilib, o'zimcha, mening ham eng yaxshi kunlarim boshlandi... Nimaga deysizmi? Xullas, shoirlar uyushmaga taklif qilishdi. Tasavvur qilyapsizmi? Meni uyushmaga! U paytlar bu narsa men uchun Xalq shoiri bo'lishday gap edi. O'sha daqiqadan boshlab o'zimni shoir deb hisoblay boshladim. Nazarimda hamma menga qarayotgandi. Aslida ham shunday edi. Axir talabalar ichida mening she'rim eng yaxshi deb topildi. Tadbir tugagandan keyin xonamga qanday kayfiyatda chiqib borganim aniq esimda...

Shunday qilib Yozuvchilar uyushmasida har juma kuni o'tkaziladigan "Onajonim she'riyat" to'garagiga boradigan bo'ldim. Uyushmaga borayotgandagi hissiyotlarni yozib o'tirishga hojat yo'q. Harholda men shunday hisobladim. Chunki agar uni bayon qilsam, yana bir hikoya dunyoga keladi. Insoniyatning vaqti kundan-kun ozayib borayotgan hozirgi zamonda odamlarning hatto bir sahifa matn o'qishiga shubha tug'iladi.



Uyushmaga borib, meni taklif qilgan shoir Navoiylik Alisher akamizga telefon qildim. Alisher aka darhol javob berdi. Meni to'garak o'tkaziladigan xonaga boshlab borganda, to'garak allaqachon boshlanib bo'lgan ekan. O'zimni ming yillardan beri hayot boshlanib bo'lgan o'zga sayyoraga tushib qolganday his qila boshladim. To'garak rahbari Mansur Jumayev bilan birinchi marta o'sha yerda uchrashdik. Ustoz bir qarashda juda xushmuomala ko'rinardi-yu, lekin ba'zi gaplaridan talabchanligi bilinib turardi.

Shunday qilib, uyushmadagi to'garakka qatnay boshladim. Universitetda davomat birinchi o'rinda turganligi uchun to'garakning ba'zi sonlariga kelolmay qolardim. Kelsam ham darslardan zo'rg'a qutulib, kechikib kelardim. Har safar shoshib-pishib kelib ruxsat so'raganimda, Mansur aka ham o'z o'rnida yumor bilan javob berardi: "Har-har zamon ruxsat".

Shunday bo'lsa-da, Mansur aka bilan hali u qadar yaqinlashib ketmagandik. Ustoz uchun to'garakning boshqa a'zolari kabi oddiy shogird edim. Tartibga ko'ra, to'garak a'zolari bittadan she`r o'qishi kerak, hamma she'r o'qib bo'lgandan keyin esa she'rlarning nuqsonlari muhokama qilinardi.

Ammo bir safar bunday bo'lmadi. Ustoz she'r o'qilib bo'lingandayoq uning nuqsonini aytib qo'ya qoldi. Bu she'rni esa men o'qigandim. Har doimgiday navbatim kelganda hayajon bilan she'rni o'qiy boshladim. Bu she'r o'zimga yoqqani uchun boshqalargayam, albatta, yoqadi, deb o'ylardim. O'qib bo'lganimdan so'ng to'garak a'zolari boshqalardan ko'ra meni qattiqroq olqishlashdi. "Yaxshi she'r ekan", "Zo'r she'r ekan", maqtovlar eshitildi. Ich-ichimdan judayam xursandman. Axir men she'r o'qidim, zo'r she'r o'qidim. Ammo Mansur aka fikrini birgina gap bilan aytib qo'ya qoldi: "Yaxshi, endi she'r o'qing".



O‘shandan keyin to‘garakka bordimmi-bormadimmi, esimda yo‘q. Lekin ustozning oldiga borishga yuragim dov bermay qoldi. Asta-sekin ko‘ziga ko‘rinmay ketdim. Oradan uch yillar chamasi o‘tgandan keyin ustoz bilan xabarlashib, oldiga borganimda meni tanimadi. Axir uch yilda kimlar keladi, kimlar ketadi. Mansur akaga o‘sha voqeani eslatganimda, zo‘rg‘a esladi. Keyin o‘shanda bekor tanqid qilgan ekanman, deb afsus qildi. Men esa bu fikrga qo‘shilmadim. Ustoz to‘g‘ri qilgan. Hozirgi holatimni bilaman. Balki, o‘shanda tanqidning ta’mini tatib ko‘rmaganimda, hozir bu darajada bo‘lmasdim.

Diyor MAHMUD

Men esa ijodimdagi birinchi va eng qattiq tanqidga duch keldim. Boshimdan bir chelak qaynagan suv quyilganday bo‘ldi. Nima deyishimni bilmay:

– Bu yoqmadimi? – deya oldim zo‘rg‘a yasama tabassum bilan. Mansur aka ahvolimni darhol tushundi shekilli:

– Boshqa she’r o‘qing, – dedi xushmuomalalik bilan. Keyin to‘rt qatorli bir she’r o‘qidim. Bunisi falsafiyroq va oldingisidan ancha durust edi.

– Bunisi yaxshi ekan-a? – Mansur aka boshqalarga gap ma’qulladi. Ustozning bu harakati mening ko‘nglimni ko‘tarish uchun, meni sindirib qo‘ymaslik uchun qilinayotgani kunday ravshan edi.

O‘sha kuni yotoqxonaga qanday yetib kelganimni eslolmayman. Faqat taslim bo‘lmasligimni, endi juda ko‘p o‘qishimni, hammasini boshqatdan boshlashimni o‘zimga qayta-qayta va’da berib kelganim esimda.

GATES CAMBRIDGE SCHOLARSHIP –

DOKTORANTURA VA MAGISTRATURADA O'QISH UCHUN BARCHA XARAJATLARI TO'LIQ QOPLANUVCHI STIPENDIYA DASTURI

Dastur har yili Buyuk Britaniyadan tashqari barcha mamlakat fuqarolaridan 80 kishi (AQShdan 25, qolgan barcha davlatlardan 55) uchun xarajatlari to'liq qoplanuvchi stipendiya dasturini taklif etadi. Kvotaning asosiy qismi PhD talabalariga to'g'ri keladi. Nomzodlar Kembrij universitetiga PhD (doktorantura), magistratura yoki 1 yillik aspirantura uchun hujjat topshirishlari mumkin.

Gates Cambridge Scholarship milliarder Bil Geyts va uning rafiqasi Melinda Geyts tomonidan tashkil etilgan bo'lib, dasturdan intellektual salohiyatli, o'zgalarning hayotini yaxshilash istagida bo'lgan hamda yetakchilik qobiliyatiga ega nomzodlarni saralab olish ko'zlangan.

Gates Cambridge Scholarship stipendiyaga tayinlangan nomzodning o'qish va yashash xarajatlarini to'liq qoplaydi, shu bilan birga, zarur hollarda qo'shimcha yordam mablag'lari ham ajratadi. Keling, endi beriladigan moliyaviy ko'mak turlari haqida batafsil to'xtalsak.

G'oliblarning universitetdagi o'qish xarajatlari to'liq qoplanadi;

Bitta talaba uchun stipendiya miqdori 2024-2025-yilgi o'quv yilida 12 oy uchun 21,000 funt sterlingni tashkil qiladi;

PhD bosqichidagilar uchun grant 4 yilgacha amal qiladi;

O'qish boshlanishi va tugashidagi borish-kelish aviachipta to'lovlari qoplanadi (faqat o'ziga);

Kirish vizasi hamda sug'urta xarajatlari to'liq to'lab beriladi.

Bundan tashqari, akademik rivojlanish, oilaviy, otalik yoki onalik nafaqalari, qiyin vaziyatlarda qolganda va boshqa bir qancha holatlarda vaziyatdan kelib chiqib moliyaviy ko'maklar beriladi.

Hujjat topshirish

Arizalarni qabul qilish va moliyalashtirish uchun universitetning "Bitiruvchilar uchun ariza topshirish portali" orqali topshirish zarur. Grantga talabgor sifatida ko'rib chiqilish uchun nomzod onlayn arizada o'ziga mos kursga topshirish bo'limini, o'quv bo'limini hamda arizaning "Funding" qismida "Gates Cambridge"ni to'ldirishi kerak. "Funding"da esa quyidagilar so'raladi:

- Nomzod nega ayna shu kursga ariza topshirayotgani haqida 3000 ta belgidan iborat bo'lgan insho;
- PhD nomzodlari uchun tadqiqot ishi;
- Akademik tavsiyanoma.

Eslatma: Hujjatlarni topshirishga kirishishdan avval universitetning rasmiy saytidan (www.gatescambridge.org) kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish zarar qilmaydi.

Gates Cambridge Scholarship milliarder Bil Geyts va uning rafiqasi Melinda Geyts tomonidan tashkil etilgan

Ariza topshirish muddati

Boshlanish sanasi: **04.09.2024**

Qabulning so'nggi sanasi: **03.12.2024**. Topshirilayotgan dasturga qarab 07.01.2025 gacha bo'lishi ham mumkin.

Qabul natijalari esa 2025-yilning 5-martiga qadar e'lon qilinadi. G'oliblarga 7-aprelgacha grantlar taklif qilinadi. Taklifni 3 kun ichida qabul qilish kerak, aks holda grant bekor qilinishi mumkin.

TerDU o'qituvchisi Zaynura QODIROVA tayyorladi

ABDULLA AVLONIY SCHOLARSHIP:

EMPOWERING FUTURE LEADERS

In an increasingly competitive world, the pursuit of higher education is often marred by financial constraints. The "Abdulla Avloniy Scholarship" stands as a beacon of hope for many students seeking to overcome these barriers. Named in honor of Abdulla Avloniy, a philanthropic figure dedicated to educational advancement, this scholarship aims to empower students by providing crucial financial support.

The "Abdulla Avloniy Scholarship" was established with a clear vision: to ensure that financial limitations do not hinder talented individuals from pursuing their academic dreams. Abdulla Avloniy recognized the transformative power of education and its ability to change lives, communities, and, ultimately, the world. His commitment to philanthropy has inspired the creation of this scholarship, which reflects his belief in investing in the future of young leaders.

The scholarship is designed for students from diverse backgrounds, ensuring equal opportunity for all who demonstrate academic potential and a commitment to their communities. Typically, applicants must meet specific requirements, such as being enrolled or planning to enroll in an accredited college or university. Other criteria may include maintaining a minimum GPA, demonstrating financial need, and providing letters of recommendation that highlight the applicant's character and achievements.

The scholarship committee places significant emphasis on personal essays, where applicants can share their stories, aspirations, and motivations. This aspect allows the committee to understand each candidate beyond their academic records, fostering a holistic evaluation process.

Applying for the "Abdulla Avloniy Scholarship" is a straightforward yet thorough process. Prospective students are encouraged to visit the official scholarship website, where they can find detailed information about eligibility, application deadlines, and required documents.

One of the most significant advantages of the "Abdulla Avloniy Scholarship" is the financial support it provides. The scholarship can cover various expenses, including tuition, books, and other educational fees, alleviating the financial burden on students and their families. This support allows recipients to focus on their studies without the stress of financial constraints.



Moreover, the scholarship fosters a sense of community among recipients. Students often have the opportunity to connect with past scholarship winners, creating a network of like-minded individuals who can offer guidance, mentorship, and support throughout their educational journey. This sense of belonging can be invaluable as students navigate the challenges of higher education.

The impact of the "Abdulla Avloniy Scholarship" extends beyond financial assistance. Recipients often report a significant boost in their confidence and motivation, knowing that their hard work and potential have been recognized. Many scholarship winners use their experiences to inspire others, engaging in community service or mentorship programs to give back and help future generations of students.

Furthermore, the scholarship contributes to the development of future leaders who are committed to making a difference in their communities. By investing in education, the "Abdulla Avloniy Scholarship" not only transforms individual lives but also strengthens the fabric of society as a whole.

The "Abdulla Avloniy Scholarship" is more than just a financial aid program; it is a testament to the power of education and the belief that every student deserves a chance to succeed. By removing financial barriers and fostering a sense of community, this scholarship empowers students to pursue their dreams and become the leaders of tomorrow. As more individuals and organizations recognize the importance of supporting education, initiatives like the "Abdulla Avloniy Scholarship" will continue to pave the way for a brighter future for countless students.



NilufarTOSHPO'LATOVA prepared



TASAVVURDAGI HIKOYALAR (TURKUM)



MAXLUQ

Beshikni yodimga tushirdi tobut

A'zam O'KTAM

Maxluq juda jirkanch, ayniqsa, undan qo'lansa hid anqiyotganiga chidab bo'lmas edi. Ko'zlarida mehrdan asar ham yo'q. Allaqanday ochlik jazavasi yonib turardi.

U qishloqdan shaharga qochib kelgan foxishani yedi. Keyin nasha kayfidan insonning dunyoga kelishidan maqsad nima ekanligi haqidagi muqaddas ta'limotni unutgan bir to'da bangilarni paqqos tushirdi.

Odamlar Maxluqdan telbalarcha qochishar, ammo, ular shahardan chiqib ketishning imkoni yo'qligini bilishmasdi ham. Detektiv hikoya yozganim evaziga "Xiyobon gazetasi" tomonidan berilgan qalam haqini cho'ntagimda mahkam siqqancha dir-dir titrab, shoirga yuzlandim.

– Maxluqqa qarshi birgalashib kurashganda, uni yenggan bo'larmidik... – dedi qo'shnim iltijoli

termilib. Uning nigohida qo'rquv, dahshat emas, men anglab yetolmayotgan xavotir bor edi. – Bolalarini tashlab bo'lsa-da, o'zga shaharlarga qochayotganlar bilanmi?

Shoir o'zining savoliga o'zi javob berdi. To'g'rirog'i, u o'ziga-o'zi gapirayotgan ekan.

Shaharning yarmi ostin-ustun bo'ldi. Qiy-chuv, yig'i-sig'i, shovqinlar quloqni qomatga keltiradigan darajaga yetdi. Biroq, hech kim janob Maxluqqa qurol u yoqda tursin, xoda ham o'qtalmas, u esa kimnidir tilidan, boshqa birini ko'zidan yeyishni boshlar, paqqos tushirib bo'lganidan keyin og'zidan badbo'y hid tarqatgancha kekirib olib, yana "ish" ini davom ettiraverardi. Uning vayronkor harakatlari o'n uchinchi kitobimda tasvirlangan "Mafiya sardori" bilan o'xshashligi meni hayron qoldirdi.

Maxluq shahar ahlini deyarli yeb tugatdi. Endi u biz tomonga bostirib kelayotgan edi. Xavotirlanib, qo'shnimga boqdim. U asabiy, lekin hali ham Maxluqdan zarracha qo'rqmasdi. Menga esa suyaklarim shiqirlayotgani eshitildi. U ustimizga yanada tezlik bilan bostirib kela boshladi. Birdan sonlarim orasi qiziganini, keyin yaltiroq shimim ho'llanganini sezdim.

Maxluq mening qonsiz yuzimga qarata qahqaha otdi. Shunda uning og'zidagi qolg'indilar yuzlarimga uchib tushdi. Badbo'y hiddan ko'nglim behuzur bo'ldi. Maxluq shoirga mahzun tikilib qoldi. Meni esa qo'shnim qo'rqinchni umuman tuymayotgani ajablantirardi.

Vayronaga aylangan shahar tinchib qolgan. Maxluq bitta-yu bitta omon qolgan uy oldiga bordi. Biz ham uning ortidan ergashdik.

Qo'rqinchdan deyarli qutulgan bo'lsam-da, oyog'imga ilashayotgan ho'l, yaltiroq shimim ko'nglimni yana behuzur qila boshladi.

Uydan allaqanday sehrli ovoz eshitilardi. Avvaliga anglolmadim. Shoir menga ma'noli termildi. Ochig'i uning "dard"ini tushunolmadim.

Maxluq deraza qarshisiga yanada yaqinroq bordi. U onaning pastqamgina uyidan taralayotgan allani tinglarkan, bahaybat, beso'naqay gavdasi kichrayib borardi. Shoirga qaradim. Qo'shnimning ma'yus ko'zlaridan shashqator yosh oqardi.

Maxluq sekin-asta insonga aylandi. U yosharib, beg'uborlasha boshladi. Ona o'z qo'shig'ini tugatganida, u taxminan uch yoshlardagi bolaga aylanib qolgan edi.

Bolakayning yuzini ko'rishga yuragim dov bermasdi. U biz tomonga o'girildi. Yo Rab! Bunchalar tanish chehra! Uni qayerdadir ko'rgandayman.

Shoir qulog'imga pichirladi: – bolaliging.

Ro'paramda o'zim menga iltijoli termilib turardi.

Chorraha

Odamzodki birovga ko'ngil qo'ymasa, yashashining qizig'i bo'lmas ekan. Bahodir polvon buni ellik beshga kirib angladi.

Uning yoshligi Buxoroning Ko'liyon qishlog'ida kechdi. Bahodir zuvalasi pishiq, barvasta yigit bo'lib yetildi. U shuncha yashab, birovga elanmadi. Ezmalik, qitmirlik nima, bilmadi. O'z nomi bilan Bahodir polvon bo'lib o'sdi.

Kim nima desa desin, insonning ulg'ayishida muhitning o'rni bo'lakcha. Bahodirni bolaligidanoq bobosi Afzal bog'bon tarbiyaladi. Pakanagina Afzalning otning kallasiday yuragi bor edi. U o'lguday rostgo'y, mehnatsevar bo'lgani uchunmi, qishloqdoshlari orasida alohida izzat-hurmatga erishgan edi. Ko'liyonliklar: "Xotinlarning qirqta, Afzal chaqqonning qirq beshta joni bor" yoxud ko'proq ishlayotganlarga "Afzal chaqqon bo'lib ket-e!" deyishardi.

ORIYAT

Ana shunday mardi maydonning fazilatlari Bahodirning qon-qoniga singdi. U kichikligida o'rtoqlari bilan mushtlashib qolsa, osonlikcha ko'zlariga yosh olmas, yuzlari qontalash bo'lganida ham oshnalaridan emas, o'z harakatidan qoniqmaganidan o'ksinardi.

Yillar shamoli kuragi yer ko'rmagan, oqko'ngil Bahodirning tim qora sochlariga vaqt dengizining oppoq ko'piklarini sochdi. Polvonning mardlik timsoli bo'lgan gavdasi sal bukchaydi.

U qirq yoshida davralarga tushmay qo'ygandi. Biroq, o'tgan yilgi Navro'z kurashida qo'shni qishloqlik Naim polvon bilan kurashmoqni ixtiyor qildi.

Bahodirning bemavrid maydonga tushishi ko'liyonliklarni yetti uxlab, tushiga ham kirmagandi. Lekin kurash qizigan, katta taboqlar e'lon qilinayotgan damda kutilmagan voqea sodir bo'ldi. Qo'shni qishloqlik Naim daroz davraga tushib, ko'liyonlik polvonlarni shonasini birma-bir yerga tekkiza boshladi. Bu daqiqalarda Bahodirning joni halqumiga kelib, tinmay yer mushtlab, zo'r-bazo'r alamini ichga yutardi.

Navbat birinchi taboqqa keldi. Kutilganidek yerga tushgan taqsimchani Naim polvon olib, boshi uzra baland ko'tardi. Obbo! Odamlar jimib qolishdi. Qarib qolgan polvonlar, kurashning asl ishqibozlari ko'liyonliklar orasidan Naimga mos polvon izlashardi. Vanihoyat ularning yuzlariga qon yugurdi. Hali juda yosh, vazni ham raqibidan kamroq bo'lsa ham Ne'mat polvon deganlari "Qiruvchi samolyot" ning qarshisiga mardona yurib bordi. "Qarang-a, men erisholmagan Malikaning kenjatoyi shunday kelishgan polvon bo'libdi", – ko'nglidan o'tkazdi Bahodir.

Malika to'ylariga otasi rozi bo'lmagach, Bahodirga "Alloh o'g'il nasib qilsa, uni, albatta, polvon qilib o'stiraman", deb va'da bergandi o'shanda.

Bugun keksa kurashchi Ne'matni davrada ko'rib, beixtiyor ko'zlariga yosh oldi. Dunyolarga alishmagan Malikasining ko'rsatgan jasoratiga polvon bo'lsa-da, qoyil qoldi. Uni xayolan quchib, "seni sevib adashmagan ekanman", – dedi ichida.

Kurash qizg'in tus oldi. Tarafkashlarning qiyqirig'i ham unga o'zgacha fayz bag'ishlardi.

Polvonlarning ikkalasi ham tik, mardona olishardi. Ammo, vaqt o'tgani sari Naimning tajribasi ustun kela boshladi. Ba'zida esa Ne'matning to'liq pishmagani sezilardi.

Bahodir qanchalik baqirib, yosh polvonga ko'maklashmasin, baribir Naim raqibidan ko'ra ko'p usul bilar, uni dog'da qoldirish uchun jon-jahdi bilan kurashardi.

Axiyri...

Bahodirning joni og'zidan chiqib ketayozdi. U xuddi o'zi yiqilgandek shalpayib qoldi. Qizig'i bakovul ko'liyonlik edi. U qanday bo'lmasin, Naimni qishloqdoshlari yiqitishini jon-dilidan istardi. Beixtiyor o'z yonidan katta pul tikib, "Naim polvonga ko'liyonlik talabgor polvon bo'lsa, davraga chiqsin!" deb yubordi.

Hammayoq suv quygandek. Bakovul bechora e'lonni uch marta takrorladi. Biroq, hech kimdan sas-sado chiqmasdi.

Bu qishloq hayotidagi birinchi va ulkan mag'lubiyat edi. Birdan "Mana, men kurashaman! Men kurashaman!" degan alamzada ovoz yangradi. Barcha yalt etdi. Maydon o'rtasida kurash libosini kiyib olgan Bahodir ko'zlaridan olov sachrab, boshini yuqori ko'targancha turardi.

BECHORA

Yolg'iz yashardi. Bandaga ehtiyoji yo'q edi. Juldur kiyimda, o'zi bilan o'zi gapirib yurgani uchun u hech kimni qiziqtirmasdi.

Orolda faqat ugina hukumat xizmatidan foydalanmasdi. Albatta, toqqa yondosh kulbasi egallagan to'rt metr toshloqni va unga yiliga to'lashi kerak bo'lgan soliqni inobatga olmasa...

Biroq bechorada musodara qilinadigan buyumning o'zi yo'q. Orol hukumati qozon-tovoq va ustarasidan bo'lak boyligi yo'q kimsaning taqdiriga qiziqmasdi. Hatto shuncha yildan buyon bechora elektr toki, tabiiy gazsiz qanday yashayapti, degan o'y bo'lmagan.

Hammasi qo'shni Oroldan badarg'a qilingan Yuksak iqtidor egasi kelgunicha tinch va bexavotir edi. O'sha kelgindiga yashashi uchun xohlagan joyini tanlash imkoni berildi. Katta miqdorda maosh tayinlandi.

U kulbani tanladi. bechora esa kun bo'yi kulbasiga bormaslikni ixtiyor qildi. Bir uyda yashashsa-da, kechquringina ko'rishardilar. Bu orada Yuksak iqtidor egasi yuqori unumli texnologiyalarni ixtiro qildi.

Oroldagi o'rikzorlar va atirgul plantatsiyalari tugatildi. Ularning o'rnini ulkan zavodlar egalladi. Tinch go'shani shovqin-suron va qora tutun makon qildi. Yerlarni, hatto suv ostini qazishni boshlab yuborishdi. Orol ramzi bo'lgan oq amur baliqlari qirilib ketdi. Hukumatga esa pul to'rt tomondan yog'ilib kela boshladi.

bechora kulbasiga kechqurunlari ham bormaydigan odat chiqardi. Shunda yuksak iqtidor egasi ichki bir sezgi bilan bechora o'zidan uzoqlashishga urinayotganini sezib qoldi.

U kuni bo'yi izg'ib, bechorani namozshom yovvoyi hayvonlar makoni bo'lgani uchun madaniylashtirilmagan chakalakzordan topdi. Tavba. U o'ziga o'rik yog'ochlari va qamishdan chayla qurgan.

bechora qurib ketgan tarashalarni to'pladi. O'sha tomonga qo'llarini cho'zdi; ko'zlarini yumib, bir nimalar deb pichirladi. Uning panjalari orasidan olov hosil bo'ldi.

Saharda bechora tinimsiz serenada ovozidan uyg'onib ketdi. Ko'chada hukumat mashinasi, uning oldida esa ikki barzangi turardi. bechoraning savolomuz nigohiga javoban ularning darozi: "seni "Hukumat uyi" ga chaqirishayapti, – dedi. – Kiyinib chiq". "Boshqa libosim yo'q", – dedi bechora.

“Hukumat uyi”dagi xona to‘rida qorindor, tepakal, bitko‘z bir kimsa gavdasiga yarashmagan ravishda ulkan boshini likillatib o‘tirardi. Uning o‘ng tomonida juda ozg‘in va daroz kishi bir qo‘lida yon daftarini, ikkinchisida ruchka ushlagancha imoga mahtal. Chap tomonda esa Yuksak iqtidor egasi. U har doimgiday did bilan kiyingan, soqolini qirtishlayverganidan yuz terisida qoramtir dog‘lar paydo bo‘lgandi.

– Shuncha yildan buyon yerlarimizda yashaganingiz uchun biror marta soliq to‘lamagansiz, to‘g‘rimi?

bechora qorindorning maqsadini bilishni istagani uchungina boshini qimirlatib qo‘ydi.

– Biz soliqlarni hisoblab chiqdik. Bu – juda ko‘p pul bo‘ldi. Ammo, sizda buncha mablag‘ yo‘q.

bechora yana boshini egib, semizning gapini ma’qulladi.

– Sizga hukumat uchun bitta xizmat qilishni taklif etaman, evaziga – o‘sha qarzlardan voz kechamiz. Hukumat uylaridan birini sovg‘a qilishim ham mumkin. Sizda tanlash imkoni yo‘qligini eslatib qo‘yish shart emasdir..?

Kulba. Yuksak iqtidor egasi bechoraga o‘zining qachonlardir vatani bo‘lgan qo‘shni Orolga o‘g‘rincha borish yo‘llarini o‘rgatdi.

– Qiladigan ishim nimadan iborat?

– Mening qadrimga yetmagan la’nati Orolning rivojlanishi asosi bo‘lgan Statistika va Mehnat bandligi tashkilotini yoqib yuborasan. Bo‘ldi, menga unaqa qarama, iltimos. Agar, o‘sha iflos-larga rahming kelsa, buni juma – dam olish kuni qil.

Bechora topshiriqni bajarib, kulbasiga qaytdi. Unga qorindor hashamatli uy sovg‘a qildi. U rad etdi. “Olmasangiz ham shu joyiga qo‘l qo‘ying, qoidasi shunaqa”, – dedi semiz.

Uch oydan so‘ng kulbaga baqaloq serenadali mashinada keldi: “sening “ish”ingdan keyin o‘sha la’nati Orolda rivojlanish ikki barobarga oshdi. Senga uch kun muhlat; Orolni tark et, bo‘lmasa…

Bechora qo‘shni Orolga yo‘l oldi. Mehmonni hukumat odamlaridan biri kutib oldi va unga mulozamat bilan dedi: – Yashashingiz uchun o‘zingiz xohlagan joyni tanlang. Ha, darvoqe, maoshingiz haqida umuman qayg‘urmasangiz ham bo‘ladi.

Tun.

SINGISH

Qishning qilichdek keskir shamoli derazaga yo'lning narigi betidagi daraxtlarning tuproqqa aylangan ildizlarini sochardi. Bu uy egasining halovatini buzdi. U hali o'ttiz yoshga to'lmagan bo'lsa-da, sochlariga oq oralagan, qorindor, peshonalarini o'rgimchak to'rini eslatuvchi ajin "bezagan" kimsa edi.

Odam tashqaridagi tinimsiz shovqindan bezovta bo'laverganidan axiyri bo'yinbog'ini yechdi. Derazaga yaqinlashdi. Qanchalik tikilmasin, uning ko'zlariga oynaga urilayotgan tuproq-ildizlar ko'rinardi, xolos. Odam tashqaridagi chiroqni yoqdi. Birdan uning ko'zlari yo'lning narigi betidagi daraxtlarning ildizini yeyayotgan maymunlarga tushdi. Ular to'da-to'da holida bo'lsa-da, negadir barchasi tik turganida ham qaddi egikday tuyulardi. Qo'llarining kaftlari esa juda katta: bu qo'llar bir-biriga urilaverganidanmi, kaftlar go'shtdor emas, eniga hayratlanarli darajada keng edi.

Chiroq yorug'i tushgach, hayvonlar qorong'ulik qa'ridagi daraxtlar sari chopqillab ketishdi. "Ular yorug'likdan qo'rqar ekan", deya ildizlari kamayib qolgan, tanalarining yarmi qurigan daraxtlarga mahzun boqdi Odam.

Yana shamol turib, tuproqqa aylangan ildizlarni deraza ko'ziga urdi. Odam shundagina tuproq qizg'ish, qon rangida ekanligini ilk bor payqab qoldi. "Odatda, tuproq qo'ng'ir tusda bo'lardi-ku, nega qizil, nega ehtiros rangida..?"

Shu kundan Odamning halovati buzildi. Kechqurunlari uxlolmay, yorug'likni ko'paytirish, quyosh nurlarini to'g'ri taqsimlash haqida o'yladi. Ammo, sahardan ishga otlanarkan, uning bu fikrlari tarqab ketar, yana bo'yinbog'ini qattiqroq siqar, shimini har kungidan tekisroq, silliqroq qilib dazmollashga urinardi.

Oradan oylar, yillar o'tdi. U endi ildizni, qip-qizil tuproqni va maymunlarni ham deyarli unutgandi.

Ammo oxirgi o'n oy ichida uning oyoqlarida maymunlarnikidek tuk o'sa boshlagandi. Negadir yurishi, ayniqsa, qaddi bukchaygani ham o'sha – tungi maymunlarga o'xshab qolayotgandi. Shunda birdan daraxtlarga tikildi. Nahotki?! Ularning yarmi qurib qolgan, tanalarida esa maymunlar o'zlarining tilida nimalardir deb, tinmay chiyillashar, iloji boricha daraxtning eng yuqorisiga ko'tarilishga urinishardi.

Odam ularni kuzatarkan, unga maymunlarning qaysi birining ovozi baland chiqsa, o'sha o'zi osilib turgan daraxtning uchiga chiqishi osonroq kechayotgandek tuyuldi...

Odam shu kuni ishga kechikib borgani uchun tashkilotdagi katta odamlardan dakki eshitdi. Uni soqolini olishni ham unutadigan, oq ko'ylak uyoqda tursin, hatto bo'yinbog' taqmaydigan, odmigina kiyimi bilan kattalarning zaharxandalariga sabab bo'ladigan kimsa bilan tenglashtirishdi.

Bu gapdan qattiq ta'sirlangan Odam bo'yinbog'ini yana-da qattiq siqdi. "Yaxshi, yaxshi", degan ovoz eshitildi. Yoki unga shunday tuyuldimikin... Oxirgi vaqtlar Odam faqat qog'ozlar va raqamlarga tayanib ish ko'rganidanmi, u xotirasidan nolirdi...

Umr bir maromda o‘tib borardi. Biroq endi Odamning qo‘llarini ham jun bosgan, kaftlari eniga hayratlanarli darajada kengaygan, tanasi esa maymundan aslo farq qilmasdi. Shuni inobatga olmaganda, uning qorni va cho‘ntagi to‘q, uyida yigirma yilga yetadigan oziq-ovqat zaxirasi ham bor edi.

Dabdurustdan Odamning xayoliga: “Yuzim ham maymunbashara bo‘ldimikan-a..?” degan savol keldi. Chunki u mehnat ta’tiliga chiqqani uchun uch kundan buyon soqolini qirtishlamagan, to‘g‘rirog‘i, ko‘zguga qaramagan, lekin bo‘yinbog‘ini yana-da qattiqroq siqishni kanda qilmasdi.

Odam uyining eng chekkasida joylashgan hammomga borib, o‘sha yerdagi oynaga qarashga erindi. Ko‘cha tomondagi derazaga yaqinlashib, beixtiyor tashqarining chirog‘ini yoqdi. Shu onning o‘zida ko‘chaning narigi betida yolg‘izlanib qolgan, hali tanalari to‘liq qurimagan daraxt ustidagi maymunlardan biri yugurib tushib, deraza qarshisiga keldi. Bu juda tez sodir bo‘ldi. Yoki Odamning xotirasi pand berdi – bu unga shunday tuyuldimi, xullas, ikki maymun bir-biriga termilib turardi.

Ularning birgalashib, yo‘l chetidagi eng oxirgi daraxt ildizini yeb tugatishlariga hozircha deraza xalaqit berayotgandi, xolos...

QAYTISH

Suv hayotning ijodkoridir
Iogann Volfgang Gyote

Baliq suvning tubida yashardi. Lekin ahyon-ahyonda qirg'oqqa chiqib, ovchilarni kuzatardi. Yana qalbini g'am, alam, armon, yolg'izlik azobi o'rtay boshlasa, suv tubiga sho'ng'ib ketardi...

Shu paytgacha hech kim uning kitlarday suv purkaganini, akulalar singari yirtqichlik qilganini ko'rgan emas. Baxtga qarshi baliqning tangachalari ham oltin emas edi. O'zi ham dunyodagi sanoqli – suv tubida yashaydigan, uzlatnishin baliqlarday muloyim, o'txo'r.

U odamlarga o'xshab marjonlarni boylik deb emas, san'at asari, to'g'rirog'i, Yaratgan egamning takrorlanmas asarlaridan biri deb o'ylardi.

U o'tmishni eslashni uncha xush ko'rmaydi. Ammo biladiganlarning aytishicha, baliq bir paytlar odamlar orasida yashagan.

Avvallari uning hozirgi makoni bo'lmish Zarafshon daryosi ham haqiqiy daryo bo'lgan. Hayqirib oqqan. Orol dengizi ham tuz emas, Zarafshonga o'xshab zar sochgan. Shubhasiz, odamlar oltin desa, daryo-yu dengizlarni sipqorishadi. Bir-birlarini ham aksariyat hollarda oltin uchun o'ldirishadi.

Qiziq tomoni, u dastlab daryoga kelgan paytda baliqlar haqidagi tasavvuri butunlay o'zgacha edi. Ularni eng pokiza jonivorlar deb bilardi. Zero, odamlarning ko'pchiligi shunday fikrlaydi-da! Ular orasida go'shtxo'rlari ham bo'lishi baliqning yetti uxlab, tushiga ham kirgan emas. Bizning mo'min-qobil, botini isyonga to'la qahramonimiz ana shunday baliqlar bilan mavsumiy majlislarga ham qatnab ko'rdi. Biroq, ko'ngli to'lmadi. Qaradiki, go'shtxo'r baliqlar ko'lmagida marvaridi ko'p baliqlarga tavoze qiladilar, ularning dumlaridan o'padilar; unchalik tosh bosmaydigan baliqlarning mashvarati kuni yo'q yerdan ishlari chiqib qoladi. Bu holat baliqlarga ixlosi baland qahramonimizga odamlar orasida yashaganidan ko'ra qattiq ta'sir qildi. Uning qalbida mung, alam yana-da ortdi. Aytgancha, baliq kimdandir eshitgan ediki, qanchalik ko'p ilming bo'lsa, yashashing shunchalik qiyinlasharkan...

Xullas do'stimiz qalbini chang, g'uborlardan asrash uchun daryoning tub-tublariga sayohat qildi. U qanchalik suv tubiga sho'ng'ir ekan, hayrati shuncha oshdi. Suv yuzidagi ko'pik bilan suv tubidagi marjonlarning farqini teran anglay boshladi. U his qildiki, bu ob-hayot baliqqa o'tgan umri davomida ham hamroh bo'lgan. Lekin do'stimiz buni qalbi nurga to'lgachgina his qildi.

Meni ish yuzasidan daryoning narigi chekkasiga yuborishdi. U yerdagi odamlar ham daryoning bu chekkasidagidek, faqat boshqa tilda gaplashar ekanlar, xolos. Qolaversa, bu paytga kelib, "chegara" so'zi kashf qilinibdi. Ortimga qaytay desam, katta simto'siq. Endi ortga qaytishim uchun ham qaysidir odamga pul-qog'oz berishim kerak ekan.

Bular-ku o'z yo'liga. Yaqinda bir yangilik eshitib, quloqlarimga ishonmadim. Baliq yana odamlar orasiga qaytibdi. Aytishlaricha, bu qaytish mendek odamning tasavvuriga sig'maydigan, so'z bilan tasvirlab bo'lmaydigan qaytish ekan.



DO‘XTIR QABULIDA

Jobir bo‘chkadan asar ham qolmadi. Ikki oy deganda puchak, nimjon. Eski shalvarlari shalvirab, belidan tushib ketaverdi. “Dard yomoni qarilikdir, yoronlar”, deydigan odat chiqardi.

Xachirining ustida karillashlar, bag‘baqalarini lo‘mbillatib, xaxolashlar ham yo‘qoldi.

Jobir mulla mingan eshakdek yuvosh bo‘ldi.

Afti o‘zga sayyoraliklarday vahimali tus oldi.

U xesh-aqrabolarini bir-bir yo‘qladi.

Hamma hayron, hamma lol.

Bo‘chkani nima to‘p tepdi, nima jin urdi? Na odamga qo‘shiladi, na odamga o‘xshaydi.

U suralar yodlab, oxirat haqida kitoblar o‘qiy boshladi. Majlis-pajlisga qatnadi. Yo‘q, nima qilmasin, ochunning oxiri yo‘q edi. Dunyoning oxiri o‘lim edi.

Endi o‘laman derdi. Og‘zidagi “bodi-shodi”lar kamaydi. Bo‘chka falsafiy, “tarixiy shaxs” larday gapiradigan bo‘ldi. Uni majlislarda to‘rga qo‘ysang, bemalol “mulohazali nutqlar irod qiladigan”, to‘y-hashamlardagi “so‘z” larni tinglaydigan, uy tevaragiga nihol o‘tqazadigan, yo‘ldagi qog‘oz va ushoqlarni terib oladigan, soqolini kunora qirtishlaydigan bo‘ldi.

Hamma hayron, hamma lol.

Bo‘chkaning o‘g‘li malakali shifokor do‘stini topdi. Do‘xtir bemorni obdon tekshirdi. Jobir unga payg‘ambarni ko‘rganday iltijoli termilardi. Do‘xtir kulimsiradi, qah-qah otdi va Jobirning o‘g‘liga baqira ketdi: – o‘ttizga kirib ham odam bo‘lmading-a! Travmatologni yurak kasaliga qanday aloqasi bor? Aytgandim-ku, ozgina badantarbiya qilsinlar, xolos deb. Cho‘lda o‘sganmisan nima balo?!

Jobir sarosimalandi. Vaziyatni teran bilishga tirishar, tipirchilar, ammo...

– Bu odam soppa-sog‘, o‘lishiga balo bormi? Tog‘aginam, – shifokor kasallik varaqasini uzatib – shu ikkita dorini iching, tamom! – dedi asabiy.

Jobir hecham ishonmasdi.

Bo‘chka hayron edi. Bo‘chka lol edi.

To‘rt oy o‘tdi ham Jobir o‘lmadi.

Bir yil deganda Bo‘chka picha semirdi. Uni mahallaga saylashdi. Mahalla gurkiradi. Tuman bu mahallani boshiga ko‘tardi. Qishloq Jobir bovani boshiga ko‘tardi. U ezmalanib ketmadi. Jobir bovaning dimog‘i o‘smadi.

“Travmatolog” hali ham shifoxonada ishlayapti.

Obid QO‘LDOSH,
Buxoro viloyati

SAMUEL Batler:

"Baribir o'z fikrida qoladi..."



Jaholatning eng aniq belgisi - takabburlik va kibrdir.

Yolg'on gapirishda qandaydir ehtirom bor. Biz odamlarga yolg'on gapirganda, ularning ustunligini tan olamiz.

Shayton haqida oqlov: biz faqat bir tomonning gapini eshitganmiz.

O'ylamasdan harakat qilishdan oldin yaxshilab tekshirib ko'ring.

Inson hayoti tong shudringidek yoki chaqmoqdek o'tkinchidir.

Hayot - charchash jarayonidir.

Har qanday rivojlanish har bir organizmning daromadidan ortiq yashashga bo'lgan istagiga asoslanadi.

Har qanday ahmoq haqiqatni aytishi mumkin, lekin yolg'onni yaxshi gapirish uchun aql kerak.

Hayot aniq fan emas, u san'atdir.

Tovuq - tuxumning boshqa tuxumni yaratish usulidir.

Sevib, sevgidan ayrilish hech qachon sevmaslikdan afzaldir.

Qasamyodlar - shunchaki so‘zlar va so‘zlar - shamoldir.

Agar mastlikdan oldin bosh og‘rig‘i kelsa, spirtli ichimlikni ichish fazilat bo‘lar edi.

Xudo o‘tmishni o‘zgartira olmaydi, lekin tarixchilar buni qila olishadi.

Hayotni jiddiy qabul qilmaslik kerak bo‘lgani kabi, o‘limni ham shunday qabul qilish kerak.

Inson madaniyatni shubha bilan qarshi olish uchun yetarli madaniyatga ega bo‘lishi kerak.

Kamtar va itoatkor odamlarni ulug‘lashning foydasi yo‘q, chunki ular ulug‘langandan keyin kamtar va itoatkor bo‘lishni to‘xtatadilar.

Oyna bizga faqat tashqi ko‘rinishimizni ko‘rsatgani uchun minnatdor bo‘laylik.

Hayot - cheklangan dalillar asosida xulosalar chiqarish san’atidir.

E’tiqod eng kam qarshilik yo‘lini tutadigan harakatdir.

It bilan o‘ynashning eng katta zavqi - siz bilan birga ahmoqlik qilsa ham, sizga tanbeh bermaydi.

Inson o‘zi yeyishni rejalashtirgan qurbon bilan do‘stlasha oladigan yagona hayvondir.

O‘ziga zerikishga ruxsat bergan odam zerikarli odamlardan ham ko‘ra ko‘proq nafratga loyiqdir.

Eng yaxshi yolg‘onchi - eng kam miqdordagi yolg‘onni eng uzoqqa cho‘zib gapiradigan kishidir.

Haqiqatni izlash xatolikning eng katta manbai.

Sog‘lom oshqozon konservativdir.

Ota-onalar bolali bo‘lishi kerak bo‘lmagan eng so‘nggi odamlardir.

Agar aqlga ergashsangiz, u ko‘pincha aqlga zid xulosalarga olib keladi.

Ezgu bo‘ling va siz nopok deb nom olasiz.

Nimkosalar

× × ×
Odamlar baxtli yoki baxtsiz emas, ular olgan va kutgan narsalar o'rtasidagi nisbat bo'yicha o'zlarini baxtli yoki baxtsiz his qilishadi.

× × ×
Pulning yo'qligi barcha yovuzliklarning ildizidir.

× × ×
Aqlli odamning zerikarli bo'lishi har qanday zerikarli odamdan ham yomonroqdir.

× × ×
Majburan rozi bo'lgan odam baribir o'z fikrida qoladi.

× × ×
O'xshashlik ko'pincha noto'g'ri bo'lsa-da, bu bizda mavjud bo'lgan eng to'g'ri narsa.

× × ×
Kimdir vasiyat qildimi, o'shanda yagona to'g'ri ish - zudlik bilan o'lishdir.

× × ×
Odamlar favqulodda holatlarda juda sodda bo'lishadi.

× × ×
Iso Masih cherkovdan xiyonat, shafqatsizlik va tark qilish asosida ajrashishga murojaat qilganida, ehtimol ajralishga ruxsat olardi.

× × ×
Hayot yashashga arzimaydimi? Bu inson uchun emas, balki homila uchun berilishi kerak bo'lgan savoldir.

× × ×
Agar men erta vafot etsam, o'zimning muvaffaqiyatlarimdan zerikib o'lishdan qutilaman.

× × ×
Aristokratik va akademik odamlar shunday noyob muhitda yashaydilarki, oddiy mantiq ularga kamdan-kam yetib boradi.

× × ×
Inson kuladigan va qonunlar chiqaradigan yagona hayvondir.

× × ×
Burchni bajarish qiyin emas, lekin uning nima ekanini anglash juda murakkab.

× × ×
Matbuot odamlarni chop etilgan ma'lumotlarga ishonmaslikka o'rgatadi.

× × ×
Mening asosiy maqsadim kitoblarimni barcha odamlarning xonalariga olib kirish va boshqa yozuvchilarning kitoblarini o'z xonamdan uzoqlashtirishdir.

× × ×
Mushukka ism qo'yish adabiy quvvatning haqiqiy sinovidir.

× × ×
Yovuzlikning vazifasi - yaxshilikni me'yorda ushlab turish.

Dunyo tomonidan eng ko‘p qoralangan ba’zi illatlar ichida ham yaxshilik urug‘lari bor, ular to‘liq tiyilish o‘rniga mo‘tadil foydalanishni talab qiladi.

Otasi bo‘lmagan odam hech bo‘lmaganda otasiz qolishning rohatini bilmaydi. Ko‘pchilik erkaklar uchun otasining o‘limi yangi hayot yo‘lini ochadi.

E’tiqod bilan ko‘p narsani amalga oshirib bo‘lmaydi, lekin e’tiqodsiz hech narsa amalga oshmaydi.

O‘limga shunchaki uzoq muddatli xorijiy sayohat deb qarang.

Aqlli odam mag‘lubiyatini anglab, jang qilishni to‘xtatishi kerak.

Qo‘rquv meni o‘zimni eshitishimga to‘sqinlik qiladigan shovqindir.

Xatlarning vaqt o‘tishi bilan sharob kabi qadri oshadi. Erkak kishi sharobni omborda yiqqani kabi xatlarni yig‘ish kerak.

Ozgina bilim xavfli bo‘lishi mumkin, lekin ozgina bilimsizlik ham xavfli narsa.

Ruhoniylar dunyoga tegishli emaslar va universitet ta’limi ularni shunday saqlab qolish uchun mo‘ljallangan.

Yovuzlik yuzaga chiqishi uchun yaxshilik qilishning o‘zi kifoya.

O‘lish - bu o‘lish jarayonini bir marta bajarish va tugatishdir.



AFSONAVIY SARKARDALAR VA ULARNING TULPORLARI

Dunyo tarixida otlarga sadoqat va qudrat ramzi sifatida qaralgan. Yaqin o'tmishga e'tibor qaratadigan bo'lsak, toki zamonaviy mashinalar va texnologiyalar rivojlangunga qadar bu jonivorlar juda ham qadrlanar edi. Qolaversa, qadimda otlardan bevosita jang maydonida foydalanilganidan ham xabaringiz bor. Shu sababli har bir buyuk sarkardaning o'ziga xos xususiyatlarga ega sevimli oti bo'lgan. Quyida siz-u bizga yaxshi tanish bo'lgan tarixiy shaxslar va ularga sadoqat bilan xizmat qilgan, ko'pchilik uchun notanish "nom"lar bilan tanishamiz.

AMIR TEMUR VA KUNO‘G‘LON

Amir Temurning otlari orasida eng sevimlisi bo‘lgan Kuno‘g‘lon haqidagi ma’lumotlarni turli tarixiy kitoblarda uchratishimiz mumkin. Ushbu ot Temur uchun nafaqat jang maydonlarida muhim sherik bo‘lgan, balki qahramonlik, sadoqat timsoli sifatida ham eslanadi. “Kuno‘g‘lon” so‘zi o‘zbek tilida “kunning o‘g‘li” yoki “kuchli, qudratli” degan ma’noni bildiradi. Bu nom otning jasurligi va tezligini ifodalaydi. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur Kuno‘g‘lonni yoshlik chog‘ida topgan. Kuno‘g‘lon oddiy otlardan farqli bo‘lib, juda tez va chidamliligi bilan sarkardaning e’tiboriga tushgan. Temur Kuno‘g‘lon bilan qattiq bog‘langan va u otini faqat janglarda emas, boshqa sayohatlari va harbiy yurishlarda ham o‘zi bilan olib yurgan.Qolaversa, Kuno‘g‘lon Amir Temurning ko‘plab mashhur janglarida qatnashgan. Ayniqsa, “Qorategin janglari”da Kuno‘g‘lonning roliga alohida urg‘u berilgan. U har bir jangda otning maxsus qobiliyatlaridan strategik maqsadlarda foydalanib, dushman qo‘shinlarini chalg‘itish va kutilmagan hujumlar qilish uslubidan muvaffaqiyatli foydalangan. Tarixchilar fikricha, Kuno‘g‘lon qarib vafot etgan, otiga juda qattiq bog‘langan Temur Tarag‘ay esa bu yo‘qotishdan chuqur qayg‘uga botgan.

MAKEDONSKIY VA BUTSEFAL

Aleksandr Makedonskiyning Butsefal laqabli oti haqidagi afsonalar yunon va dunyo tarixida mashhur. Afsonalarga ko‘ra, Butsefal juda yovvoyi ot bo‘lgan va uni hech kim boshqarolmagan. Aleksandr otasi Filipp II saroyida, bu otni ko‘rganida uni sotib olishni istagan. Aleksandr Butsefalning o‘z soyasidan qo‘rqayotganini sezib, otni quyoshga qarab aylantirib boshqargan holda muvaffaqiyatli bo‘ysundirgan. Bu voqea Aleksandrning zukkoligi va hayvonlarni tushunish qobiliyatidan darak beradi. Nima uchun Butsefal? Bu yunoncha “Bucephalus” so‘zidan olingan bo‘lib, “bu” (ho‘kiz) va “kephalos” (bosh) so‘zlari birlashuvidan hosil bo‘lgan. Uning peshonasida ho‘kiznikiga o‘xshash belgilar yoki shakllar bo‘lgan deya taxmin qilinadi. Butsefal Aleksandr Makedonskiy bilan ko‘plab janglarda qatnashgan va sodiq hamroh bo‘lgan. Jumladan, mashhur Gaugamela jangida ham Aleksandr o‘z lashkariga Butsefalni mingan holda boshchilik qilgan. Tarixchilarning so‘zlariga ko‘ra, ushbu ot miloddan avvalgi 326-yilda Makedonskiyning Hindistonga qilgan yurishlari chog‘ida halok bo‘lgan. Buyuk sarkarda zabt etgan hududlarida hatto Butsefal sharafiga shahar qurdirgani haqida ham ma'lumotlar mavjud.

CHINGIZXON VA BO'RTE CHINO

Buyuk sarkarda Chingizxonning Bo'rte Chino laqabli oti haqida turli xil rivoyatlar bor ersa-da, aniq ma'lumotlar, dalillar mavjud emas. Lekin bu nom mo'g'ul va turkiy xalqlar orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ramziy ifodadir. Bo'rte Chino mo'g'ul tilida "Moviy bo'ri" (kurt) ma'nosini anglatib, tarixiy va afsonaviy ma'noda bo'ri xalqlari, ayniqsa mo'g'ullar uchun qahramonlik, kuch-qudrat va davlatning boshlanishini ifodalaydi. Mo'g'ullar tarixida "Bo'rte Chino" tushunchasi afsonaviy asosga ega. Mo'g'ul millatining kelib chiqishi haqidagi afsonalarda Bo'rte Chino, ya'ni Moviy Bo'ri xalqning asoschilaridan biri bo'lgan. Afsonaga ko'ra, Bo'rte Chino va uning sherigi, go'zal kiyik Qo'a Maral (oq kiyik) orqali mo'g'ul xalqi paydo bo'lgan. Bu afsona mo'g'ullarning bo'rilarni o'z xalqi va naslining muqaddas belgisi deb qabul qilishi uchun asos bo'lgan. Shu sababli ular otlarni oddiy bir hayvon sifatida emas, ishonch va qudrat ramzi deb biladi.

YULIY SEZAR VA GENITOR

Ko'plab tarixiy manbalarda Yuliy Sezarning otlarga bo'lgan mehri va ularga alohida e'tibor qaratgani qayd etiladi. Sezarning otxonasida ko'plab noyob naslli otlar boqilgan va ular ichida sarkarda uchun eng sevimlisi Genitor laqabli ot bo'lgan. Genitor lotin tilida "ota" yoki "asoschi" degan ma'noni bildiradi. Bu ot nomi Yuliy Sezarning o'zini Rimning qudratli va buyuk asoschilaridan biri sifatida ko'rishini aks ettirgan.

Rim qo'shini suvoriylari tezkorlik va taktik jihatdan boshqa imperiyalar askarlaridan ajralib turadi. Rimlik sarkardalar otlarini jangda asosiy sherik sifatida ko'rishgan va ularni muhim strategik maqsadlarda ishlatishgan. Sezar ham otlarga katta e'tibor bergan va ularga juda yaxshi munosabatda bo'lgan. Ayrim manbalarda Genitorning old oyoqlarida umuman tuyoq bo'lmagan deyiladi. Bu otni ko'pchilik o'ziga xos bir belgi sifatida qabul qilgan va Sezarning jangovar omadining ramzi deb hisoblagan. Yuliy Sezar ko'plab muhim janglarda o'zining sevimli oti bilan qatnashgan, jumladan, Galliya urushlari (miloddan avvalgi 58–50-yillar) va ashaddiy dushmani Pompeyga qarshi yurishlarida suvoriylar harakati muhim ahamiyat kasb etgan.

SALOHIDDIN AYYUBIY VA DULDUL

Dunyo tarixida Salohiddin Ayyubiy (1137–1193) muvaffaqiyatli yurishlar olib borgan musulmon sarkardasi sifatida mashhur. Ko'plab sarkardalar kabi uning ham Duldul laqabli oti bo'lgan. Duldul, aslida, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning mashhur oti bo'lgan va ko'plab janglarda, ayniqsa, Uhud va Hunayn janglarida ishtirok etgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu ot payg'ambarimizga tuhfa tariqasida berilgan va juda kuchli, tez harakat qiladigan ot sifatida tanilgan. Shu sababli, keyinchalik musulmon dunyosidagi ko'plab mashhur jangchilar, jumladan Salohiddin Ayyubiy, o'zining otlariga payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning otining nomini bergan. Buni Salohiddinning islomiy merosga bo'lgan hurmati, shuningdek, o'zining jangdagi muvaffaqiyatlarini payg'ambarimiz bilan bog'lash istagi sifatida ifodalash mumkin. Duldul Salohiddinning ko'plab janglarida sodiq sherik bo'lib xizmat qilgan. Xususan, salib yurishlari davrida va xristian qo'shinlaridan Quddus qaytarib olingan Hatting jangida (1187) ham Salohiddin Duldul ustida jangga kirgan.

Manbalar asosida
Otabek MADAMINOV tayyorladi

Azzamchik:

"TAKRORLAMASLIK XOHISHI USTUN KELDI..."

Televizor tomosha qilib katta bo'lgan avlod bugun xabar-yangiliklar-u to's-to'polonlarni, asosan, smartfon atalmish mitti qutidan kutazishga o'rganib qoldi. Yoshlarni esa gapirmasa ham bo'ladi. Internetda shapkasini qoshining ustiga bostirib olgan, o'xshatish joiz bo'lsa, ovozini o'zimizning baxshilardek bo'g'iqroq xonish qilib yurgan qo'shiqchi yigitga ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak. "Salamaleykum" deya boshlanuvchi taronasi o'zidan ham mashhurroq xonanda Azzamchik, ya'ni A'zamjon Mullajonov bilan bo'lgan suhbatni siz aziz mushtariylarga ilindik.

– Birorta sozni chala olmaydigan qo'shiqchi yaxshi san'atkor bo'lolmaydi.

– Ijodkor o'zi yaratgan obrazida yashaydi, u orqali yuragidagi ezguliklarni boshqalarga ulashgisi keladi, eng asosiysi, o'zi ham shundan zavq oladi. Azzamchik obrazi sizga nimalar berdi?

– Azzamchik obrazi birdan yarq etib hammaning e'tiboriga tushishi uchun anchagina mehnat qilindi. Bu nom ma'lum darajada mashhurlik berdi, dunyo kezishga, borgan joylarimizda O'zbekistonda ham shunaqa iste'dodlar borligini ko'rsatish imkonini berdi, deya olaman. Bu men uchun berilgan bir ne'mat, uni qadrlashim kerak, to'g'ri maqsadlarga yo'naltirib, san'at shaydolarining ko'nglini yorita borsam, asl maqsadimdan og'ishmagan bo'laman.

– Hayotdagi portlash, albatta, xavfli. Ammo ijoddagisi – bu omad! Chunki undan keyin qilinadigan mehnat natijasini uzoq kuttirmaydi. "Salamaleykum" siz uchun portlash edi, to'g'rimi? Bu qo'shiqning "tug'ilishi" qanday bo'lgan?

– Portlash deyish, albatta, to'g'ri bo'ladi. Chunki "Salamaleykum"gacha ham ijod qilib, bir qancha qo'shiqlar taqdim qilib kelganmiz, kichik doirada bo'lsa-da, muxlislarimizga manzur bo'lgan. Tomosha qilishlar ko'rsatkichi ham o'sayotgan bir paytda "Salamaleykum" deya omad ham keldi birdan. Aslida, bu qo'shiq uchun alohida tayyorgarlik, reja yo'q, na she'r va na musiqa bor edi. Yo'l-yo'lakay yoqimli bir ritm ostida so'zni so'zga ulab xirgoyi qilib kelayotganimizda tug'ildi-qoldi.

– Musiqiy ta'limni milliy yo'nalishda, maqom-u rubobda boshlagan yigitning rejalari nima sababdan butunlay o'zgarib ketdi?

– Mening eng katta yutug'im shundaki, musiqaga bo'lgan cheksiz muhabbatimni onajonim o'z vaqtida sezganlar va 2-sinfligimdayoq musiqa maktabiga yetaklab borganlar. Buning evaziga bo'sh vaqtlarim qisqarib, faqatgina san'at bilan band bo'lardim, bekorchi narsalarga hushim ham yo'q edi. Maqsadlarimni o'zim uchun katta-katta qo'yganman. Musiqa kollejidagi tahsilim davomida avvaliga Farhod Saidov kabi mohir sozanda bo'laman, mana shu yo'nalishni mahkam

tutaman, deb niyat qilganim bor edi. Rubob kabi bir qancha cholg'u asboblarini sira tindirmasdim, har kuni nimadir o'rganishga intilardim. Keyinchalik, aniqrog'i, 2006-yillarda Shohrux repperga havas qilib, zo'r bir ishtiyoq bilan rep yo'nalishiga qo'l urdim. Bu qiziqish esa 2014-yilgacha davom etgan. Musiqa maktabimizda gitara bo'lmagan, men esa gitara chalishni juda-juda istardim. Bu niyatimga 2012-yilda erishdim va ijodimda burilish yasadim. O'shanda ro'zg'or yuki mening ham gardanimga tusha boshlagach gitara chalib ko'proq pul topish mumkinligini anglaganman. Sozandalar guruhiga qo'shilib, asta-asta rizqimni tera boshlaganman. Harholda, rubobdan ham, repdan ham gitara foydaliroq bo'lgandi.

– Qanday istak va maqsadlar evaziga ovozni bo'g'ib kuylash qaroriga keldingiz?

– O'zim toza ovozda kuylashni yaxshi ko'raman. Bunday kuylashda bir qancha murakkabliklarga duch kelasiz, mushkul ish. Ammo bu ham bir uslub, o'zgachalik. Balki boshqalarni takrorlamaslik, o'z yo'limni yaratish xohishi ustunlik qilgan bo'lsa kerak. Ammo ovoz texnikalariga amal qilib, o'z vaqtida yaxshi sharoitda parvarish qilsangiz, ehtiyot bo'lsangiz, shu alfozda kuylash zarar qilmaydi.

– Sizni musiqa maktabida dars ham beradi, deyishdi. Unga vaqt, bolalar bilan ishlashga toqat yetadimi sizda?

– Musiqa maktabida o'qib yurgan kezlarimda o'zimdan kichik guruhlarga dars berib, ko'maklashib kelardim. Shuning uchun bugun bola bilan ishlashda qiynalmayman. Uning nimani istashini, nimani qanday o'rgatish kerakligini bilib turaman. Qolaversa, musiqaning hamma turini yaxshi ko'raman, tushunaman, o'quvchilar bilan ishlashda bu hamisha qo'l keladi. Bolalar bilan birgalikda yangi qo'shiqlarni ijro qilsak, qiynalmaymiz, ulardagi ishtiyoqni ko'rib maza qilaman. Shunday ekan, bu jarayon menda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi, aksincha, faqat rohatlanaman.

– Yosh san'atkor sifatida fikringiz qiziq, xonanda uchun musiqiy ilm qanchalik zarur? Yetarlicha bilim egallamagan qo'shiqchi kun kelib qoqilishi bor gap-ku!

– Birorta sozni chala olmaydigan qo'shiqchi yaxshi san'atkor bo'lolmaydi, degan qoida bor. Qo'shiq kuylashdan avval xonanda musiqiy asbobning qanday ishlashini bilishi, uni his qilishi zarur. Notani tanigan, musiqiy ilmi bor odamning sohada bosh qotiradigan muammosi bo'lmaydi. Bu narsalar san'atkor uchun suv va havoday zarur narsalar desam, og'zimga gap bilan uradigani topilmasa kerak. Biror davrada muxlislari kuy chalib berishini so'rasa, uyalib o'tirish yoki o'zini tortish sharmandali holat, shunday emasmi? Demakki, bilim kerak, qaysi darajada bo'lsangiz ham o'rganishdan to'xtab qolish yaxshi ish emas. Agar ilmi oshib-toshib ketaversa, uning etagini tutganlardan qizg'anmasa, boshqalarga ham ulasha olsa, bu baxt, ustozlik baxti – yangi daraja!

O‘zimizning yurtdagi muxlislar ulardan oz bo‘lsa bordir, ammo ming chandon qadrliroq.

– Siz O‘zbekistondan ham avvalroq xorijda mashhur bo‘ldingiz, desak yanglishmaymiz. Chunki obunachilaringizning kattagina qismi xorijliklar. Bu holatga xafa ham, xursand ham bo‘lish mumkin, shunday emasmi?

- To‘g‘ri, o‘nga yaqin mamlakatlarda bo‘ldim, ijodimni yuqori baholashdi, bundan faqat xursandman. Ammo chetdagi muxlislik, nazarimda, vaqtinchalik. O‘zimizning yurtdagi muxlislar ulardan oz bo‘lsa bordir, ammo ming chandon qadrliroq. Chunki o‘zbek muxlislar meni yaxshiroq his qila olishadi va har doim ham qo‘llab-quvvatlab turadi. Ko‘cha-ko‘yda ko‘rganda ham hurmat-izzatimni o‘rniga qo‘yishadi. Maqsadim esa, avvalo, O‘zbekistonda yaxshiroq tanilish, undan keyin jahon bilan bo‘ylashish.

,– Musiqa millat yoki til tanlamaydi, deyishadi. O‘zbekcha kuylangan qo‘shiqlaringiz ortidan, deylik, italiyalik yoki fransiyaliklarning qanday hayrat so‘zlari bilan siylandingiz?

– Qaysi davlatga borgan bo‘lsam, qo‘shiqlarimda o‘sha xalqning eng chiroyli so‘zlaridan foydalanishga harakat qildim. Bu ham mening “fishka”larimdan biri. Shu sababdandir balki, xorijiy muxlislardan iliq fikrlar oldim – ruhlandim. Haligacha qo‘shiqlarimga “reaksiya” bildirilgan videolarni ko‘rsam, beixtiyor quvonaman. O‘zgacha bir munosabat va hissiyot bilan fikr bildirishadi va asosan, ovozimga ko‘proq e’tibor berishadi.

– Sizni qaysi platformalarda ko‘proq tinglashadi? Mana shu jihatlarini ham analiz qilib, kuzatib borasizmi?

– Ijtimoiy tarmoqlarni aytsam, qo‘shiqlarim “Tiktok”da ko‘proq aylanadi, keyin “Instagram” va “Youtube”da ham. Musiqiy platformalarning ko‘pginasida tinglanadi, ularni ham kuzatib turaman. Yaxshi reytingga chiqqan paytda juda quvonaman. Masalan, pulli platformalarning birida “Salamaleykum” qo‘shig‘imiz “oltin unvon” bilan taqdirlandi. Demak, ijodimizga befarq bo‘lishmayapti, muxlislarga yoqyapti, bu shaxsan men uchun katta natija!

– Har bir muvaffaqiyatli inson uchun ma’lum davr qiyinchilik va sinovlar bilan kechadi. Sizda bu davr qaysi vaqtga to‘g‘ri keldi va uni yengib o‘tishda yordam berganlar?

– Mana bunaqa qiyinchilik ko‘rdim, falon narsadan ezildim desam, ojizlik bo‘lib qoladi, nazarimda. Har bitta bosqichda, har bir mushkul vaziyatda, muvaffaqiyatli kunlarda ham onam yonimda bo‘ldilar, Yaratgandan duo qilib omadimni so‘radilar. Bundan ortiq tirgak, bundan ortiq ko‘mak bo‘lmasa kerak men uchun. O‘zi, aslida, ham onalarning duosi har bir farzand uchun juda muhim. Onangiz yoningizdaligida qadriga yeting, duosini oling, xizmatida bo‘ling, hech ham kam bo‘lmaysiz, “qoidasi” shunaqa...

Otash YASHIN gurunglashdi

Yoshligimdan uyatchan va tortinchoq bo'lganim uchun ko'pchilik oldida o'zimni noqulay his qilganman. Men uchun ko'proq yolg'izlik va sokinlik huzurli tuyilardi. Afsuski, shu xislatim sababli do'stlarim barmoq bilan sanarli edi, xolos. Maktab paytlarimda biror bayram bo'lib qolsa, bundan sira quvonmasdim. Negaki, qancha bayram bo'lmasin, birortasida ham menga sovg'a berishmasdi. Ayniqsa, "Vatan himoyachilari kuni" bayramida maktabga borgim kelmasdi. Qizlar xushbichim sinfdoshlarimizga turli sovg'alar berishar, esdalik suratlarga shartlar va hokazolar tayyorlashardi. Birgina men sinfning burchagidagi partada birov e'tibor bermayotganidan xafa bo'lmagan holda derazadan tashqariga qarab ko'ngilni ozdiradigan o'yin kulgilar tugashini kutib o'tirardim. Maktabni bitirgach institutga kirdim. Umuman olganda, institutda o'tgan umrim ham eslagudek darajada o'tmagan, faqat bir voqeadan tashqari.

TANAFFUSDAGI MUHABBAT

Ammo rashk qilgulik holat yo'q bunda,
Yurakda g'imirlar, chiqmas so'zlarim.
Sening ro'molchangga termulib o'tdi
Eng uzun – eng qisqa tanaffuslarim.

Mirzo KENJABEK

Birinchi kursda o‘qiyotgan paytlarim edi. Men yoqtirmaydigan bayram – 14-yanvar. Aniq esimda, tanaffusga chiqib ketayotganimda bir kursdosh qiz oldiga chaqirdi. Men hayron bo‘lib u tomon bordim-u, kutilmagan so‘zlardan hayajonlanib ketdim. Qiz “Bayramingiz bilan tabriklayman” dedi-da, qo‘limga yangi ro‘molcha tutqazib, jilmaygancha xonaga yugurib kirib ketdi. Yuragim tez urganidan tanam qizib, yuzim qip-qizil rangga kirgandi. Shu on miyamda turfa xil o‘ylar ko‘pira boshladi. Qiziq, negadir bu qiz ko‘zimga har kungidan boshqacharoq, chiroyliroq tuyilaverdi.

Nahotki, u qizning menda ko‘ngli bor? Nahotki, sevgi shunaqangi yoqimli tuyg‘u... Yuragimda nimadir jiz etgandek bo‘ldi. Bu oddiy bolalarcha hayajon emas, bu haqiqiy sevgi edi. Mana shu qisqa fursatda u bilan birga xayolan turmush qurib, birga qarishga ham ulgurdimov.

Axir, maktabda qizlar o‘zlari yaxshi ko‘rgan yigitlarga sovg‘a berishardi-ku, endi ham tuyg‘ularimga ishonaman, u qiz meni sevadi, deya o‘ylay boshladim. Shunday shirin o‘ylarimni tanaffus qo‘ng‘irogining ovozi buzdi. Xonaga kirganimda hamma o‘z o‘rnida o‘tirgan ekan, men ham joyimga borib o‘tirdim. Yonimdagi o‘g‘il bola kursdoshim menga qarab “Maftuna senga ham sovg‘a berdimi?” deya so‘rab qoldi. Mening hayrat va qo‘rquv bilan “Qanday sovg‘a?” degan savolimga esa u cho‘ntagidan menga berilgan bilan bir xil ro‘molchani chiqarib javob berdi. Ana, endi hammasi tushunarli. Hech bir so‘z ham aytmadim. Darsdan keyin bilsam, chindan ham u qiz guruhdagi barcha yigitlarga ro‘molcha sovg‘a qilgan ekan. O‘sha kuni qo‘ynimga to‘lgan puch xayollar bilan so‘llaygancha uyimga qaytdim.



Agar tanaffusdagi o‘sha voqeani aytmasa, boshqa esda qolarli voqea yuz bermagan talabaligimda. Lekin yolg‘on bo‘lsa-da, o‘sha tanaffusda his etganim oniy muhabbat, bir umr yodimda qoldi. Haligacha u kabi tuyg‘uni his qilmadim.

Ahrorbek SULTONOV

“Yana qaytasanmi, o‘g‘lim?”

– Va’da beraman, oyning 5-sanasida qaytaman, oyi. – Yana yig‘lab yuborguday nur qochgan ko‘zlarga qaradi. Oqargan soch, bellari madorsizlikdan bukilayozgan qad...

Bularga hech e’tibor bermasdi..

O‘zining tashvishlari yetarli edi.

Ammo ko‘ngli xotirjam bo‘lsin debmi, onasining kaftini ochdi-da, va’da belgisini chizdi.

Bu bolalikdagi xotiralaridan...

Ona har zamon og‘lining yangi oyoq kiyimlarga, o‘yinchoqlarga, shirinliklarga havas bilan qarab turganini sezsa, bolaning kaftini ochardi-da, va’da belgisini chizardi: “Keyingi safar, albatta, sotib olamiz!”

Bu belgi chizildimi, va’da shubhasiz bajarilardi. O‘sha payt bu belgi bola uchun har qanday narsadan ko‘ra ishonchli edi.

Bugun ona shu taskinni his qildi...

“Qaytadi”, ichida shu gapni aytib qo‘ydi.

Oyning beshinchi sanasi keldi. Ammo og‘li kelmadi hali. Tong otdi, ko‘zlari yo‘lda. Quyosh botyapti... Darak yo‘q.

Har-har zamon eshikka qarab qo‘yadi.. Ertasi kuni bolasini oqlay ketdi. “Axir, bu oyning beshinchi sanasi demagandi-da. Keyingi oy kelsa kerak... Bolam oilasini boqaman deb qiynalib ketdi...”

Keyingi oyning beshinchi sanasi. Kuz oxirlari bo‘lgani uchun havo salqin.

Ona nikoh uzugi bilan ziraklarini bir eski ro‘molchasiga o‘rab, eshik oldida giryon. Qariyalar uyida bunday holatlar ko‘p bo‘lib turadi. Kutishga o‘rganib qolishgan...

Yanvar... Oyning beshinchi sanasi.

O‘tgan oyda ayolning kasali qaytalandi. Eshik oldiga kela olmadi, bugun yana shu yerda.

Yo‘l qaraydi. O‘sha tugunchani yana ko‘tarib olgan. Qor yog‘yapti.

“Bolam o‘tgan oy kelgan bo‘lsa kerak, topa olmagandir. Kasalxona bir chetga qurilgan bo‘lsa, bola sho‘rlik topa olmagan-da... Kelsa, shularni bersam, xursand bo‘ladi. Oilasini boqaman, o‘qiyman deb qiynalib ketdi bolaginam”.

Fevral... Beshinchi sana. Ammo eshik oldi bo‘m-bo‘sh, ayol ko‘rinmaydi.... Odatda, derazadan kuzatardi. U yerda ham yo‘q. Hech ko‘rinmayapti.

Hamshiraning qo‘lida eski tuguncha-yu qaltiroq qo‘llar bilan yozilgan xat.

“Qaysi oyning beshinchi sanasida kelishingi aytmabsan-da, bolaginam. Shu kunlarda g‘alati tushlar ko‘ryapman.. Ko‘nglim notinch, ammo beshinchi sanaga ham oz qoldi. Har ehtimolga qarshi... Shu xatniyam yozib qo‘yay dedim-da, bolam. Ziragim va uzugimni qoldirdim. Boshqa arzirli hech narsam yo‘q ekan. Yana keyingi bino yonidagi gul rastasidan bir dastagina moychechak olgandim. Biroz qarz bo‘lib qoldim. Bolaginam, shu qarzni ado qilib qo‘ygin. Sendan roziman.

Allohga omonatsan, o‘g‘lim...”

Oy oxirladi. Qabr tuprog‘i hali sovib ulgurmagan. O‘g‘li tuproq yuziga yana va’da belgisini chizdi.

“Ertaga ham kelaman, oyi!..”

Muborak OBLOQULOVA
talaba

BILGAXOQONQONUNI

ENG QADIM KO'KTURK KONSTITUTSIYASI

1. Tengri (yaratuvchi) Birdir.
2. Tengridan qut olmoqchi bo'lgan kishi boshqasiga duo qilmasin.
3. Bir el (mamlakat), bir xoqon, bir tengri..
4. Bitta qinga ikki qilich sig'maydi. Ayolning ikkita eri bo'lmaydi . Bir uyda ikkita boshliq bo'lmaydi ...
5. Hech kim an'anadan ustun emas. Bu tinchlik va birdamlik odatidir.
6. Cho'pon podasi, askar oilasi, xoqon qabilasi haqida so'raladi.
7. Har bir erkak xotinini, otini va bor bisotiga sohib bo'lur.
8. Ota-onaga, ajdodlarga hurmat seziladi.
9. Qarindoshlariga yaqin bo'ladi va qo'shnisini qo'riqlaydi.
10. Er kishi yolg'on gapirmaydi.
11. Kim mol o'g'irlagan bo'lsa, mol o'g'irlagan bilan barobar to'laydi. U yoki mol-mulki bilan javob beradi yoki joni bilan.
12. Kim mazlumga ziyon yetkazsa, jonini yo'qotadi.
13. Adolatsiz yoki yolg'on ish qilgan har bir kishi darhol javob-garlikka tortiladi.
14. Urushdan beri turgan yoki qochib ketgan Tamuyaga (do'zaxga) uchib ketadi.
15. Rahm so'raganlarga qilich tortilmaydi, panoh topgan kimsadan qaytarilmaydi.
16. Isyon qilganlarning boshi kesiladi, adolat talab qilganlarning haqlari beriladi.
17. Hech kim hech kimdan ustun bo'lmaydi. Oq tanli qoradan, qora tanli qizildan, qizil tanli sariqdan farqi bo'lmaydi.
18. G'azab va manmanlikdan uzoq bo'ladi.
19. Mazlumga rahmat, zolimga azob bor.
20. Zaiflarga, yaradorlarga, bolalarva ayollarga qo'l ko'tarilmaydi.
21. Qiz hoqonmi, bekmi, xohlaganiga beriladi.
22. Keraksiz daraxtlarni kesmang va suvni ifloslantirmang.
23. Bilmasam ham bilaman demaslik kerak, bilgan bilan masla-hatlashish kerak.
24. Bugungi ishni ertaga qoldirmaysiz.
25. Siz kamchiliklarni ko'rmaysiz va qidirmaysiz.
26. Kuchli bo'lsang, kechir, zaif bo'lsang, sabr qil.
27. Taqdiringizga qarshi isyon qilmang.
28. Qilgan yaxshilikni unut, qilingan yaxshilikni unutma.
29. Har kim adolat bilan ish tutadi.
30. Nima qilsangiz ham, sizni hukm qilishini doimo yodda tuting.
31. O'z millatingga begona bo'lib qolma. Ipakning eng zo'r va go'zal so'zlariga aldanma, ularga tortilma.
32. Adolatni birinchi o'ringa qo'yuvchi, an'anani saqlaydigan xoqondir. Odat yo'qolsa,millat yo'qoladi. Millat(davlat) bo'lmasa, odamlar qul bo'ladi.
33. Ey turk, o'g'uz, qarluq, qipchoq beklari, ey millatim, eshiting! – Yuqoridagi moviy osmon yiqilib, pastdagi yomg'irli yer teshilmas ekan, millatingiz va yurtingizni kim buzadi?

(Bilga Xoqon yozuvi - 730 O‘rxun daryosi yaqinida, Otugen-Mo‘g‘uliston)

NAF VA XAVF O'RTASIDA

SAVOL:

SIZNINGCHA, IJTIMOIY TARMOQLARDAN FAOL FOYDALANISH TALABALARNING SHAXSIY RIVOJLANISHI, TA'LIM JARAYONLARIGA QAY DARAJADA IJOBIY YOKI SALBIY TA'SIR O'TKAZADI? O'ZINGIZ KUN DAVOMIDA QANCHA VAQTINGIZNI INTERNET UCHUN SARFLAYSIZ-U, QANCHASINI DARS JARAYONLARI VA KITOB MUTOLAASIGA AJRATASIZ? QAYSI IJTIMOIY TARMOQLARDAN FAOL FOYDALANASIZ VA QANDAY BLOGLARNI DOIMIY KUZATIB BORASIZ?

Shahnoza OCHILDIYEVA, talaba:

– Zamonaviy texnologiyalar, media, ijtimoiy tarmoqlar kirib bormagan sohaning o'zi yo'q bugun. Ayniqsa, biz talaba yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga ko'p vaqt sarflaymiz. Buning hayotimizga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi esa shu vaqtimizning qay maqsadda va nimaga sarflanganiga bog'liq. Juda ko'plab yoshlar o'z ustida tinimsiz ishlab, kun sayin rivojlanib borishyapti. Til o'rganish, zamonaviy kasblar va ilm yo'lida internet ularga yordamchi, albatta! Kimlardir esa ijtimoiy tamoqlardan shunchaki videolar ko'rish, qo'lidagi telefonga soatlarcha tikilib vaqt o'tkazish uchun foydalanadi. Vaholanki, kimningdir sevgi hikoyasi, kiyim-kechak reklamasi yoki shunchaki kundalik videolar uchun sarflanayotgan vaqt ular uchun hech qanday foyda keltirmaydi. Qimmatli vaqti uvol ketadi, xolos. Men ham Telegram va Facebookdan doimiy foydalanaman. O'zimning kichkina shaxsiy blogimni yuritaman. Hayotimning unutilmas damlarini tariximga muhrlab, ijodim, fikrlarim va o'zim foydali deb bilgan ba'zi ma'lumotlarni ulashib boraman. Menga o'rnak bo'la oladigan, rivojlangan, o'zgacha insonlarni kuzataman! Keraksiz ma'lumotlar oqimini chetlab o'tishga intilaman (Garchi doim ham buning imkoni bo'lmasa-da). Universitetdagi darslarimni tayyorlash uchun ham internetga ehtiyojim bo'ladi har kuni. Lekin qanchalik zarurat uchun foydalansam ham vaqtimni qizg'onib qolaveraman. Menga inson sifatida berilgan shuncha bilim, ong va tafakkurim bilan qo'limdagi telefonga, internetga tobe bo'lib qolishdan qo'rqaman.

Dilobar MAXMAREJABOVA, talaba

Bugun hayotimizni axborot texnologiyalari aralashuvisiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham yetti yoshdan yetmish yoshgacha barchaning qo'lida telefon va gadjetlarni uchratishimiz mumkin. Tanganing ikki tarafi bo'lgani kabi ijtimoiy tarmoqlar, gadjetlardan foydalanishning ham salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Yaxshisi, buni kitobxonlik misolida shaxsiy tajribamga tayanib tushuntiraman. Men biror kitobni mutolaa qilmoqchi bo'lsam, qo'limdagi smartfon orqali internetdan uni istalgan vaqtda, ortiqcha vaqt va harakat sarflamay onlayn topib o'qiy olaman. Shu bilan birga, men buni dunyoning istalgan nuqtasida turib amalga oshirishim mumkin, ya'ni gadjetlar cho'ntakbop kitob vazifasini ham o'taydi, tezkor axborot olish uchun ham imkon yaratadi. Ammo siz smartfoningiz orqali elektron kitob o'qiyotgan vaqtingiz telefoningizga dugonangiz yoki biror tanishingizdan kelgan har qanday axborot ham sizning fikringizni bo'lishi, chalg'itishi mumkin. "Ozgina tanaffus olib o'qishni davom ettiraman" deb Instagramga kirib ketsangiz, sizning qiziqishlaringizdan xabardor algoritmlar bilan 2-3 soat vaqtingiz qanday o'tib ketganini sezmay qolasiz.

O'zim ham Instagram, Google, YouToube, Telegram va ChatGPT kabi platformalardan ko'p foydalanaman. Sababi ular shaxsiy rivojlanishim hamda universitet vazifalarini bajarishim uchun juda qo'l keladi. Boshqa tarafdan olib qarasak, har bir kitobning elektron yoki audio shaklini topish mumkin , uni o'qish har tomonlama bizga qulay. Biroq men kitoblarni varaqlab mutolaa qilishni yoqtiraman, chunki u bilan ko'zlaringiz nurini ham ehtiyot qilasiz va tasavvur kengroq bo'ladi. Xulosam, gadjetlardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yaxshi, faqatgina me'yorida.

Rahmatilla IRISBOYEV, talaba:

– Kelajakni ijtimoiy tarmoqlar, internet va elektron texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi ijtimoiy tarmoqlar va internet bilan chambarchas bog'liq. To'g'ri, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari ko'p. Biroq ijtimoiy tarmoqlar hamda texnolgiyalardan unumli foydalanmaslik yoki yoshlarga buni faqat zararli deb uqtirish noto'g'ri, nazarimda. Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, messenjerlar axborot almashishda juda katta qulayliklar beradi. Turli shakldagi axborotlarni uzatish, saqlash va ommaga taqdim etishda ijtimoiy tarmoqlar mislsiz afzalliklarga ega. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy taraflari haqida ko'p gapirishimiz mumkin. Bu bizning vaqtimizni tejashga, uzog'imizni yaqin qilishga va sifatli va zamonaviy ta'lim olishimizda muhim hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy taraflarini ham soatlab muhokama qilishimiz mumkin. Shunday ekan, ulardan samarali foydalanish har bir talaba yoshning o'ziga bog'liq hisoblanadi.

Bir kunda 5-6 soat vaqtimni ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazaman. Bu o'qishim va ishim yuzasidan talab qilinadigan normal vaqt men uchun. Darslarim uchun 4-5 soat, kitob mutolaasiga 2-3 soat vaqt ajrataman. Asosan, Telegram, Instagram, Facebook kabi messenjerlarda faolman. Yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy vaziyatlar yoritib boriladigan bloglarni muntazam kuzatib boraman.

Bizning so'rovnoma

Sherali JO'RAYEV, talaba:

– Istaymizmi-yo'qmi texnika-texnologiya hayotimizga singib ketdi. Menimcha, endi buni o'zgartirish imkonsiz. Ammo bu holatni ijobiy tomonga hal etish imkonsiz degani emas. Bularning barchasi o'zimizga bog'liq jarayon. Xususan, talabalarga kelsak, bizning hayotimizda internetdan foydalanish muhim. Yangi chiqqan darsliklarni tezroq topish, elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanish, dunyoning istalgan joyidan turli millat adabiyotlarini o'rganish uchun internet qulay imkoniyatlarni taqdim etadi. Ha, me'yoridan ortiq foydalanish shaxsiy rivojlanishda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, lekin yuqorida aytganimizdek hamma narsa o'zimizga bog'liq.

Men ijtimoiy tarmoqlarda juda ham faol emasman. Ular uchun kuniga 2-3 soat vaqtimni sarflayman. Asosiy vaqtim o'quv jarayonlariga ketadi, ya'ni bir kunda 6-7 soat dars qilish bilan band bo'laman, kitobxon talaba sifatida kuniga kamida 2 soat kitob mutolaasiga vaqt ajrataman. Axborot almashish uchun, asosan, Telegramdan foydalanaman, bu men uchun juda qulay va xavfsiz. O'zimning qiziqishlarimdan kelib chiqqan holda kitoblar va ilm-fanga oid bloglarni kuzatib boraman.

Dilorom BEKMIRZAYEVA, talaba:

– Har bir narsaning o'z ijobiy va salbiy tomonlari bor. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ham talabalar uchun bir qancha qulayliklari bo'lgani kabi zararli bo'lgan ayrim jihatlari ham mavjud. Ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt foydalanishga o'rganib qolgan talabalar asosiy o'quv jarayonlaridan chalg'ib qolishi mumkin. Qolaversa, talabalar orasida ichki odob-axloq qoidalari buzilishiga olib kelishi ham ehtimoldan xoli emas. Ammo internet bizga juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi, xalqaro darajadagi bilimlarni o'zlashtirish, fikr almashish va hokazo. Bu esa talabalar uchun qo'shimcha bilimlar manbayi demakdir. Fikrimcha, hamma narsaning me'yoriga amal qilish orqali faqat ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Internetda juda faolman, bu, albatta, shaxsiy ehtiyoj va o'qishda qo'shimcha bilimlar olish uchun sarflanadi. Taxminan 3-4 soatimni internetdan turli maqsadlarda foydalanishga sarflayman. 5-7 soat atrofida o'quv darslari bilan band bo'laman. Kitob mutolaasiga ham juda qiziqaman, lekin bo'sh vaqtim bo'lsagina kitob o'qishga harakat qilaman. Deyarli barcha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanaman, bu ham o'quv faoliyatim zarurati doirasida. Asosan, o'z mutaxassisligimga oid bloglarni kuzatib boraman. Shaxsiy rivojlanish va vaqtni boshqarishga qaratilgan kanallar va saytlarni ko'proq kuzatishga harakat qilaman.

Mustafo MURODJONOV, talaba:

– Bugungi ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Faqatgina talabalar emas, butun bir jamiyatda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish foizlari o'sib bormoqda. Zamonaviy dunyoda ma'lumotlar oqimining ko'pligini hisobga olsak, ijtimoiy tarmoqlar bizni yana ham katta oqimga tushib qolishimizga sababchi bo'lyapti. Natijada, aynan, talabalarda ma'lumotlarni kerakli-keraksizga ajratish, ya'ni filtrlay olish borasida biroz oqsashlar kuzatilmoqda. Menimcha, tarmoqlar ko'proq talabalar zarariga ishlayapti. Men tarmoqdan foydalanish borasida o'zimga cheklovlar o'rnatganman va qat'iy amal qilishga urinaman. Zarurat uchun bir kunda ma'lum vaqt belgilab olib foydalanishga odatlanganman. Iloji boricha dars jarayonida foydalanmaslikka harakat qilaman. Yurtimizda Telegram qulay platforma bo'lgani sabab universitet tomonidan talabalar uchun guruhlar, har xil foydali kanallar tashkil qilingan. Bir qancha qiziqarli bloglarni ham muntazam kuzatib boraman.

Maqsad OBIDJON yozib oldi

22-OKTABR

– OZODQALB SO‘Z USTASI

ORIF ASOMOV

TUG‘ILGAN KUN!

Suhbatlardan satrlar

Men bolalarni ertak bilan rom qilib bo‘lmaydi, degan gapga qo‘shilmayman. Chunki ertakdagi o‘ziga xoslikni, g‘aroyib syujet va g‘oyalarni hech bir yozuvchi yarata olmaydi. Baribir ertaklarning ming yillik siri katta-yu kichikni o‘ziga jalb etib qolaveradi.

Chopib yurgan otni choptirmay bitta uyga obkirib bog‘lab qo‘ysangiz qiynaladi. U yugurishi kerak¸ u chopadigan ot. U musobaqalarda qatnashishi kerak¸ tushunyapsizmi. Men dunyoning hamma sahnalarida chiqyapman Xudoga shukr. Lekin baribir mana bu yerda, o‘zimizni katta sahna turib, o‘shanga chiqa olmasangiz albatta alam qiladi.

Masxara qildi, bizni kamsitdi, bizni millatni yerga urdi degan ta’nalar yog‘iladi. Yo‘q¸ yo‘q. Hazil orqali kamchiliklarni hajv qilish qiziqchining vazifasi. O‘zining ustidan kulishni bilgan millatgina kuchli millat bo‘ladi.

Menimcha, odam har narsada nafsini tiyishi, birov bilan emas, o‘zi bilan hisoblashishi shart. Agar har bir odam o‘zini tartibga sololsa, bugungi muammolar ham sekin-asta hal bo‘ladi.

Jajji yuragingda kimning sog‘inchi,
Sezaman, ne qilay, boshqadir yo‘lim.
Senga dadangdan ham mehribon, yaqin,
Daraxtlar nomardlik qilmaydi, o‘g‘lim.

Qachondir barvasta yigit bo‘lursan,
Toleingni ko‘rib to‘lgaydir ko‘nglim.
Ulardan sadoqat sabog‘ini ol,
Daraxtlar xiyonat qilmaydi, o‘g‘lim.

Halima AHMEDOVA

Fransuz rassomi Berta Morizoning 1872-yilda ishlangan “Belanchak” kartinasi.